

# Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 15-sentabr, chorshanba № 37 (9362)

Xalq ziyolilari gazetasi

O'qiluvchi  
nimani  
o'ylaydi?



Yangi o'quv yili bilan birga ota-onalar uchun yig'inar mavsumi ham boshlandi. Kitoblar uchun ijara puli, kundalik.com uchun va yana boshqalar. Kitoblar ijara puli ham mayli, ammo elektron kundalik-chi? Bu platforma aslida tekin bo'lishi kerakmasmi? Keling, hisoblab ko'ramiz: respublika bo'yicha 6 milliondan ortiq maktab o'quvchisi bor. Kitob ijarasi har bir o'quvchiga o'rtacha 30 ming so'mdan, kundalik.com obunasi 10 ming so'mdan tushadi. Xalq ta'limi vazirligi bir yilda maktab o'quvchilaridan 240 milliard so'm atrofida pul undirib olarkan. Norasmiy yig'di-yig'dilarni aytmak ham bo'ladi.

Sadaf ISMOILOVA

Qorako'lliklarga farzandini o'qitish odatga aylangan. Keyinchalik ish topolmasa ham, foyda ko'rmasa ham o'qitishadi. Shu yil jiyanimiz Jahon tillari universitetiga yuqori ball bilan davlat granti asosida o'qishga o'tdi. Otasi ham bir paytlar shunday yuqori ball bilan o'qishga kirib o'tgan, lekin 10 yildan buyon chet elda ishlab, bolalarini o'qityapti. O'qishga kiradigan o'quvchilarning sonini ko'paytirish talabi bilan birga ularning 4 yildan keyingi taqdiri haqida ham qayg'ursak yaxshi bo'lardi.

Sanobar TO'RAQULOVNA

Bu yil yurtimiz Mustaqilligining 30 yillik to'yi ko'pchilik soha vakillarini xushnud etdi. Esdalik nishoni bilan taqdirlanganlar har yilgidan ko'proq bo'ldi. Bu baxt ta'lim sohasi vakillarining ham aksariyatiga nasib etdi. Biz taqdirlanmasak-da, mukofot puli olganimizdan xursand bo'ldik. Ammo bu pulning ko'p qismini faoliyatimiz uchun zarur narsalarga sarflashimiz kerakligi rahbarimiz tomonidan qattiq ta'kidlandi. Hatto majburlandi. Aslida bu pullarni o'zimiz, oilamiz, farzandlarimiz uchun xarjlashga to'la haqli edik, nazarimda.

Sojida KATTAYEVA

## “Facebook” mi yoki “feysbuk”?

Yangi imlo  
lug'atlariga  
ehtiyoj bor!

2-bet

## Maktab kutubxonachisi mavqeyi qachon oshadi?

3-bet

Gazetani varaqlaganda:

Oliy ta'lim:  
muammolar va ularni hal etish  
bo'yicha takliflar



4-bet

Eng yaxshi sinf  
maxsus xonada  
o'qiydi



7-bet

“Ma'rifat”li kunlar  
nafasi



8-9-betlar

“Isming kim?” desa  
variant so'raydi



12-bet

# “Facebook”mi yoki “feysbuk”?

## Yangi imlo lug'atlariga ehtiyoj bor!

O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi munosabati bilan o'zbek tilining tashqi va ichki imkoniyatlar asosida boyish jarayoni jadallashdi. Bunda tashqi manba asosida boyish yetakchilik qiladi, albatta. Yaqin yillarda so'z boyligimizdan o'rin olishga ulgurgan o'nlab so'zlar(jumladan, messenger, pandemiya, epidemiya, akkaunt, avatarka, veb-sahifa, dayjest, xeshteg, vebinar, instagram, innovatsiya, menejer, brifing, bloger va b.) borki, xalqimiz uchun yangi-yangi izohli va imlo lug'atlariga ehtiyoj tug'dirmoqda. Zero, bu kabi so'zlarning muayyan bir grafik shaklini ko'rsatib turuvchi manba(lug'at)ning yo'qligi ularning imlosida har xillik yuzaga kelishiga, natijada chalkashliklar tug'ilishiga sabab bo'lishi tabiiy. Mazkur holat to'ldirilgan yangi imlo lug'ati yaratilishi va keng jamoatchilikka tarqatilishining allaqachon mavridi kelganligini ko'rsatadi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar so'z boyligini yangi so'zlar(neologizmlar) bilan boyitishda imlosi nisbatan murakkabroq bo'lgan yuqoridagi kabi so'zlarga vaqti-vaqti bilan to'xtalish(saylanma diktantlar olish) ehtiyoji borligini ham biz pedagoglar unutmasligimiz kerak, albatta.

Imlosi nisbatan murakkab so'zlar etimologiyasiga ko'ra arabiy va forsiy birliklar doirasida ham kuzatiladi. Talaffuzi va imlosi nomuvofiq bo'lgan *suiiste'mol*, *istehzomuz*, *sa'y-harakat*, *oharabo*, *xatti-harakat*, *talbiq*, *afv*, *dasturulamal* kabi so'zlar borki, bular imlosi nafaqat maktab o'quvchilari, balki talaba-yoshlar uchun ham qiyinchilik tug'dirishi savodxonlik diktantlari olish jarayonida seziladi. Nazarimizda, bu kabi imlosi murakkab ba'zi so'zlarni to'ldirilgan, yangilangan, yangi avlod imlo lug'atlarida talaffuziga ko'ra qoidalashirish lozim(Masalan, “olijanoj” so'zi yangi imlo lug'atida “olijanoj” tarzida, ya'ni bitta “y” ortirilib berilgani kabi). Xuddi shuningdek, *suiiste'mol*, *istehzomuz* kabilarni *suiiste'mol*, *istehzomuz* shaklida(qo'sh unlining biri-

dan voz kechgan holda) berish maqsadli. Aslida, ko'pgina davlatlar imlo va talaffuzida bo'lgani kabi shu xalq kishilari, ularning talaffuzi me'yorlari bilan hisoblashilsa, foydadan xoli bo'lmas edi.

Ma'lumki, imlo qoidalari to'g'risidagi qaror 1995-yil 24-avgustda tasdiqlangan. Endi chorak asr davomida fan-texnika qay darajada rivojlanganini, natijada lug'at qatlamimizga qanchadan-qancha yangi atamalar, so'zlar kirib kelganini tasavvur qilib ko'ring! Biroq shu davrda lug'at qatlamimizdan o'rin egallagan so'zlarning imlosi (orfoografiyasi), talaffuzi(orfoepiyasi) haqida, mana, 26 yil o'tibdik, gap-so'z yo'q. Davr bilan bog'liq neologizmlar imlosi haqida hech kim aniq fikr aytolmaydi, chunki davr talabiga mos, mukammal imlo lug'ati mavjud emas. Bugungi kunda faol qatlam so'zlariga aylanib ulgurgan bir guruh o'zlashma so'zlar borki, kim qanday xohlansa, o'shanday yozib yuribdi. Yo'l bo'yi e'lon va reklamalardagi xatolar ko'p aytiladi. Lekin yangi so'zlarning imlosini belgilab ko'rsatuvchi manba — lug'at qachon nashr bo'ladi, degan savol ko'plami

qiziqiradi, albatta. Hech bo'lmaganda, neologizmlar(yangi so'zlar)ning imlosiga oid cho'ntak lug'atchalari bo'lganda ham ayrim savollar o'z yechimini topgan bo'lar edi. Masalan, mobil ilovalar, dasturlar imlosida murakkabliklar kuzatiladi. *Facebook* yozamizmi yo o'zimizga moslab *feysbukmi*? *WhatsApp* yozamizmi yo *vatsapp*? *Twitter* yozamizmi yo *twitter*? Bu so'zlar qo'shtirmoqda yozilishi kerakmi-yo'qmi? *Windows* so'zi-chi? Alifbomizda “w” grafik belgisi mavjud emasligini inobatga olib, *vindovs* tarzida yozish kerak bo'ladi shunda? Xo'p, shunday ekan, mazkur holatni, ya'ni tarkibida “w” harfi mavjud o'zlashmalarni “v” harfi bilan yozish lozim, degan qoida mavjudmi? Shakli yozuvga tayanib *Mac* yozamizmi yo o'zlashtirib *Mak* yozamizmi? *Google* yoziladimi yo *Gugl*? *Veb-sayt*, *veb sayt* yoki *vebsaytmi*? Qaysi shakl to'g'ri? Bu so'zning uchala varianti ham qo'llanmoqda.

Hozirgi paytda o'ta yangilik belgisiga ega *webinar*, *startup*, *copywriter* kabilarning imlosi qay tarzda bo'lishi kerakligini kim ayta oladi va qaysi manbaga tayanib aytadi?! Bular asliday(shakli yozuv mezoniga ko'ra) yoziladimi yo o'zimizning alifboga moslashtiramizmi? Savollar anchagina. Bu kabi so'zlarning yozilishini me'yorga solishimiz, bunga befarq bo'lmagimiz kerak. Toki qaysi biri to'g'ri deb adashib yurmaylik. Qisqa qilib aytganda, chiqishi rejalashtirilgan yangi avlod imlo lug'atlarini hozirgi zamon talablariga moslab takomillashtirishimiz va to'ldirishimiz kerakki, natijada bu kabi kamchilik va kemtikliklarning oldi olinar edi.

Nafaqat nisbatan kam qo'llanuvchi ruscha-baynalmilal so'zlar, balki kundalik hayotda tez-tez duch kelinadigan bir guruh so'zlar(jumladan: asqatmoq, qat'i nazar, mug'ambir, sa'y-harakat, jangovar, tamagir, monelik, tole, suiqasd, tashviqot, muvaffaqiyat, taqiqilamoq, taassurot, taajjub, taallaqli, bo'yusnmoq, ulgurmoq, xaxira,

daxl...) borki, yangi avlod imlo lug'ati so'ngida “Imlosi murakkab so'zlar” tarzida qayta belgilansa, lug'at foydalanuvchilarga bir qadar qulaylik yaratilar edi.

Yana bir og'riqli masala, ya'ni ommaviy axborot vositalarida imlo masalasi bilan bog'liq kamchiliklar ham borki, qo'l siltab ketib bo'lmaydi. Ma'lumki, davriy nashrlarning har bir soni mashaqqatli mehnat evaziga bunyod bo'ladi. Talaba yoshlar orasida ham gazetachilik faoliyatiga qiziquvchilar ko'p topiladi. Biroq ayrim gazetalarda(xususan, mahalliy gazetalarda) kuzatiladigan imloviy, uslubiy xatoliklar talabalar tomonidan aytilsa, “Ustoz, nega gazetalarda xatoliklar ko'p uchraydi?” qabilda e'tiroz bildirilsa, dil xira tortadi. Gazeta ishining mashaqqati, bu borada ulug' ustozlarga nisbatan hurmat, e'tiqod nuqtayi nazaridan “Ha endi, bitta xato o'zbek tili cheklanamiz. Afsuski, ijtimoiy tarmoq, sayt va kanallardagi imloga e'tibor masalasi bosma ommaviy axborot vositalaridan bir necha barobar yomon. Biroq ularning birortasi — bosma axborot vositasiga talab kamaygani ham, ijtimoiy tarmoq chegara bilmasligi ham ona tilimizga befarq munosabatda bo'lishga bahona bo'la olmaydi. Mazkur fikrlarni, shubhasiz, kundan kunga ko'payib borayotgan ayrim telekanallar faoliyatiga nisbatan ham aytish mumkin.

Savodxonlikning birinchi sharti imlo va u bilan bog'liq masalalar bo'lar ekan, bu yumushlardan tolmasslik, tilimizning sayqali, takomili uchun doimo harakatda bo'lish har bir tilparvar, xalqparvar fuqaroning vijdon ishi sanalishini izohlashga hojat yo'q.

To'liqin ASADOV,  
BuxDU “O'zbek tilshunosligi” kafedrasida  
dotsenti, f.f.n.,  
Nigina BAKIROVA,  
BuxDU Filologiya fakulteti  
4-bosqich talabasi

### O'qituvchi minbari

## Yangi o'quv yiliga kreativ yondashuv: yoxud moliyaviy nominatsiyalar

Yangi o'quv yili ustozlardan yangi loyihalarni, o'quv jarayoniga kreativ yondashgan holda o'quvchilarda bilim olishga ishtiyoqni yanada oshirishni talab etadi.

Qog'ozbozlikdan biroz bo'lsa-da yengillashgan o'qituvchilar har daqiqasini o'z ustida ishlashga sarflashi, bilimi va metodikasini rivojlantirishga harakat qilishi zarur.

Yangi o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rar ekanman, o'tgan o'quv yilini o'zimcha sarhisob qildim. Natijalardan qoniqish sezdim. Demak, vazifamni uddalayotgan ekanman.

O'tgan 2020-2021-o'quv yilida o'quvchi yoshlar o'rtasida bir qator ijodiy insholar tanlovi bo'lib o'tdi. Bu tanlovlar yangi iste'dodlarni kashf etdi. Jumladan, “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi Xalq ta'limi vazirligi bilan o'zaro hamkorlik memorandumini doirasida “Yoshlar korruptsiyasiz kelajak tarafdori” mavzusida 6-11-sinf-lar kesimida insholar tanlovi o'tkazdi. Unda 11-sinf o'quvchimi Mohidil Maharramova ham qatnashib tuman-da faxrlil 1-o'ringa loyiq ko'rildi. Tanlov taqdimoti juda chiroyli o'tdi. O'quvchimi tashkilotchilarning qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandi. Xuddi shunday taqdirlashni maktabda ham o'tkazdik, barcha o'quvchilar oldida maktab ma'muriyati g'olib qizimizni rag'batlantirdi, bu qolganlarga ham turtki, motivatsiya bo'ldi deb o'ylayman.

Shanxay Hamkorlik Tashkilotining Xalq diplomatiyasi markazi bilan birgalikda “Bahoriy tengkunlik dunyo xalqlarining o'ziga xos bayrami” mavzusida insholar tanlovi o'tkazildi. Unda 11-sinf o'quvchimi Mushtariy Erkinova o'z ijodiy ishi bilan ishtirok etdi va faxrlil 1-o'rinni egalladi. Bu tanlov o'quvchilarning xalq diplomatiyasining mohiyatini tushunishi va xalqlar o'rtasidagi o'zaro do'stlik va birdamlik, hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish, SHHT va boshqa jahon mamlakatlari xalqlarining turmush tarzi bilan yanada yaqinroq tanishishiga imkoniyat yaratdi. O'quvchimning bu tanlovda g'olib bo'lgani nafaqat meni, balki butun Farg'ona tumani ziyolilarini quvontirdi. Menga O'zbekistonda SHHTning Xalq diplomatiyasi markazi direktori Q.Sobirov tomonidan “Tashakkurnoma” va Yozuvchilar uyushmasining kitoblar jamlanmasi taqdim etilganidan yanada ruhlandim.

2021-2022-o'quv yilida ham ana shunday maqsadli

tanlovlar davom etadi, deb o'ylayman. Bu kabi tanlov, fan olimpiadalarga o'quvchilarni puxta tayyorlashni, ularning yanada yuksak natijalarga erishishini o'z oldimga oliy maqsad qildim. Chunki ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi mustaqil fikrli, iste'dodi bor o'quvchilarni to'g'ri yo'naltirishi, o'quvchidagi qobiliyatni vaqtida aniqlab, uni rivojlantirishga e'tibor berishi kerak.

Bu o'quv yilida esa o'ziga xos bir loyiha haqida o'yladim: sinf rahbarlik uchun oloyatgan oylik ish haqimdan 100 ming so'mini sinfimdagi eng a'lochi va ijodkor o'quvchilarimga “Sinf rahbari stipendiyasi” sifatida berib rag'batlantirmoqchiman. Bu katta summa bo'lmasa-da, 6-sinf uchun kam ham emas. Bundan tashqari, har oyda o'zim darsga kirayotgan sinflar kesimida ona tili va adabiyot fanidan bilimlarini kommunikativ — hayotda amaliy qo'llay olish darajasiga ko'ra “Yosh ijodkor”, “Yosh kitobxon”, “Navoiy asarlari bilimdoni”, “Mohir suxandon”, “Adabiyot dahosi”, “Yosh tilshunos”, “Eng chiroyli husnixat egasi” kabi nominatsiyalar bo'yicha o'quvchilarimni moliyaviy rag'batlantirib borishni rejalashtirganman. Qolaversa, ehtiyojmand oila farzandlariga bepul repitetorlik kurslarini tashkil etmoqchiman!

Maqsadim — oddiy maktab o'quvchilarining dunyogarashini kengaytirish, bolalikdan o'z-o'zini tanitish, hayotda yashashdan maqsad neligini anglatish, ilm olish inson uchun hayotiy zaruriyat ekanligini bola ko'ngliga mehr bilan naqshlash, qanday maktabda, qanday sharoitda o'qish muhim emasligini tushuntirish, chuqur bilim va yuksak maqsad sari intilish, bu yo'lda aslo taslim bo'lmaslikni singdira olishdir.

Diloyat OBIDOVA,  
Farg'ona tumanidagi  
12-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

## Ochiq xat

# Maktab kutubxonachisi mavqeyi qachon oshadi?

**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasiga!**

**Xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatovga!**

Respublikamizdagi maktab kutubxonachilarining ko'pchiligi uzoq yillardan buyon talaygina muammolarga duch kelmoqda.

Maktab kutubxonachisining vazifalari sirasiga pedagog xodimlar va o'quvchilarni badiiy adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlaridagi yangiliklardan xabardor qilish bilan birgalikda, darslik bilan ham shug'ullanish kiritilgan. Kutubxona faoliyati bilan tanish bo'lmaganlar "Sizlar yilda ikki marta — sentabrda darslikni berib, may oyida yig'ishtirib olsangiz bo'ldi, boshqa ishingiz yo'q", deyishadi. Aslida, bunday emas, biz yil boshidan rejalar tuzib, muhim sanalarga tadbirlar, kitob taqdimoti va ko'rgazmalari, to'garak mashg'ulotlari o'tkazamiz. Kitobxonlarga kunlik xizmat ko'rsatish, o'quvchi va ota-onalar bilan ishlash, yuqori tashkilotlardan kelgan va maktab rahbarlarining topshiriqlarini bajarish hamda maktabni darslik bilan ta'minlash masalalari bilan muntazam ravishda shug'ullamiz. Kelgusi o'quv yilida chop etiladigan darsliklarga buyurtma shakllantiramiz, foydalanishga yaroqisiz darsliklarni utilitatsiyaga tayyorlaymiz. Bunda har bir darslikning hisobini yuritib, kilogrammini chiqarib qayta tayyorlovga jo'natish jarayonidagi muammolarga yillar mobaynida yechim topa olmaymiz. Sababi, utilitatsiyaga topshirilishi kerak bo'lgan kitoblarni vazni bilan biz tayyorlagan kilogramm bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Darslik yangiligida og'irroq tosh bossa, eskirgandan so'ng ancha yengillashib qoladi va natijada belgilangan kilogrammni chiqara olmay, o'z hisobimiz yoki maktab ma'muriyati, o'qituvchilardan yordam so'rab kamomadni to'ldirishga majbur bo'lamiz.

Maktab kutubxonalarining aksariyatida sharoit talabga javob bermaydi. Kitob javonlari, stellajlar yetishmaydi. Ko'plab maktab kutubxonalarida qishda sovuq, yozda issiq. Bu esa mavjud adabiyotlarning sifatiga ta'sir qiladi (kutubxonachilarning sog'lig'i-ku hech kimni qiziqitmaydi!). Yozda issiq, qishda sovuq xonalarda tinimsiz o'tirib ishlaganimiz uchun aksariyat maktab kutubxonachilari buyrak va bo'g'im kasalligiga chalinishadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsliklari har ikki yilda, yuqori sinf o'quvchilarining darsliklari har to'rt yilda yangilanar edi, hozir esa bir yildan qo'shilgan. Ayrim sinf darsliklari — informatika, ingliz tili kabi darsliklar bosqichma-bosqich yangilanib turadi, xullas, har yili kutubxonaga yangi darsliklar qabul qilinadi. Ushbu darsliklarni maktabga olib keltirish, tashish xara-



jatlari ham kutubxonachilar hisobidan qoplanadi. Yangi kelgan darslik va badiiy adabiyotlarni shtamlash va raqamlash uchun rang va ruchkalarni ham o'z hisobimizdan xarid qilib olamiz. Maktab kutubxonalariga budjetdan mablag' ajratilmaydi.

Maktab kutubxonasida ish ko'lami ko'p bo'lgani bilan shtatlar soni chegaralangan. 30 ta sinfi bor maktablarda ham 1,5 stavka, 70–80 ta sinfi bor maktablarda ham 1,5 stavka, vaholanki, 80 ta sinfi bor maktabda ish ko'lami ikki-uch barobar ko'p bo'lishi hammaga ma'lum.

Maktab rahbarlari va pedagog xodimlarga sinf va o'quvchi sonidan kelib chiqib ish haqi belgilanadi, ammo kutubxonachilarga kelganda bular hisobga olinmaydi. Bir necha bor tumandagi yuqori tashkilotlarga shtat xususida murojaat qilishimizga qaramay o'zgarishlar bo'lmadi, mas'ullar esa osongina "o'quvchi sonini kamaytir", deb bizning vakolatimizga kirmaydigan vazifani taklif etishmoqda. 80 ta sinfi bor maktabda 2,5 zavuch, 2,5 direktor o'rinbosari shtati bor, lekin kutubxonachi uchun 1,5 shtat!..

Maktab kutubxonachilariga darsliklarning ijara to'lovlarini yig'ib, bankka olib borish ishi yuklatilgan. O'rtacha 35–40 million so'm topshirilishi kerak, biz bu mablag'larni yig'ib, sanab, bankka borib navbat kutib topshirib kelamiz. Ota-onalarga darsliklar uchun to'lovni o'zlari bankka borib amalga oshirishlari kerakligini tushuntira olmadik, osongina ijara narxini tashlab ketishadi. Bu

Maktab kutubxonasida ish ko'lami ko'p bo'lgani bilan shtatlar soni chegaralangan. 30 ta sinfi bor maktablarda ham 1,5 stavka, 70–80 ta sinfi bor maktablarda ham 1,5 stavka, vaholanki, 80 ta sinfi bor maktabda ish ko'lami ikki-uch barobar ko'p bo'lishi hammaga ma'lum.

ijobiy o'zgarishlar tufayli o'qituvchilar maqomi kundan-kunga oshib borayotganligidan xursandmiz. Shu o'rinda maktab kutubxonachilarining ham maqomi oshsa qanday soz bo'lardi. Kutubxona maktabning yuragi hisoblanadi. Darsliklar va badiiy adabiyotlar esa tomirlarda oqayotgan qondek muhimdir. Kutubxonachi esa ana shu muhim jara-yon ijrochisi.

Endi shu sohaning mutaxassisi sifatida o'zim keltirib o'tgan bu muammolarni yechish yo'llari borasida ham takliflarimni bildirsam:

1. Maktab kutubxonalarini ham davlat budjetidan moliyalashtirilishi kerak.

2. Ularning kitob fondi va moddiy-texnik bazasini boyitish shart. Kompyuter texnikasi va internet tarmog'iga ulanishi zarur.

3. Kadrlar qo'nimsizligiga barham berish kerak. Bugungi kunda xalq ta'limi tizimida 12 ming nafar kutubxonachi faoliyat yuritayotgan bo'lsa, shularning 95 foizini boshqa soha vakillari tashkil etadi. Tanish-bilishchilik avj olgani sababli haqiqiy mutaxassislar bu sohada kam uchraydi.

4. Bugungi kunda maktab kutubxonachilariga ma'lumoti va mutaxassisligidan qat'i nazar, bir xil maosh to'lanyapti. Bu masalani ham qayta ko'rib chiqish kerak. Shunda maktab kutubxonasida ishlayotgan haqiqiy mutaxassis va nomutaxassisning maoshida farq bo'ladi. Ma'lumoti va mutaxassisligidan kelib chiqqan holda mehnatga haq to'lash tizimini tabaqalashtirish lozim.

5. Maktab kutubxonasiga haqiqiy mutaxassis xodim ishga kelsa, kutubxonada ishlayotgan boshqa soha vakili joyni har qanday holatda ham bo'shlatishi shart. Buni qonun bilan belgilab qo'yish kerak. Shundaygina kutubxonalarining saviyasi ko'tariladi. Kutubxonashunoslik va bibliografiya — alohida bir fan. Buni faqat shu sohaning haqiqiy mutaxassisiga tushunadi.

6. Kutubxonalar o'zlarining to'g'ridan to'g'ri faoliyati bilan shug'ullansa, samaradorlik yuqori bo'ladi. Bugun esa biz, o'quvchilarga insho yozdirish, rasm chizdirish, hikoya yozdirish, umuman sohamizga kirmaydigan vazifalar bilan bandmiz. Bunga chek qo'yish kerak.

7. Maktab kutubxonachilariga kitob changida ishlaganligi uchun (sog'lig'ini tiklash uchun) qo'shimcha haq to'lanishi kerak (Ilgari to'lanar edi).

Muhtaramxon SOTTIYEVA,  
Oltiariq tumanidagi  
1-maktab kutubxonasi mudiri

# Oliy taʼlim: muammolar va ularni hal etish boʻyicha takliflar

Oliy oʻquv yurtlari keyingi yillarda turgʻunlik davrini oʻtagani uchun ularning oʻquv va tadqiqot ishlarida qoʻllaniladigan asbob-uskuna, jihozlari eskirdi, ishdan chiqdi. Boshqacha qilib aytganda, aksariyat OOʻYlarning moddiy-texnik bazasi nochor ahvolga kelib qolgan. Shuning bilan birga, taʼlim muassasalari pedagog kadrlarining keksayishi kuzatilmoqda. Afsuski, fan nomzodlari va doktorlarining ayrimlari eski bilimlariga tayangan holda faoliyat olib borishmoqda. Professor-oʻqituvchilar ilmiy-tadqiqot ishlarini bilan shugʻullanmasa, zamonaviy ishlab chiqarish korxonalar bilan doimiy aloqada boʻlmasa, eskirgan xulosalar haqida maʼruza oʻqiydi yoki oʻzi yaqindan tanish boʻlmagan soha boʻyicha adabiyotlardan oʻrganib (retranslyator sifatida) dars beradi.

Hozirgi kunda OOʻYlarda pedagoglarning maoshi asosan ularning ilmiy darajalariga bogʻlab qoʻyilgan. Yuqori salohiyatli kadrlar yetishmayotgan, ilmiy daraja olishga sharoit yetarlicha boʻlmagan paytda bu iqtidorli, shijoatli yoshlarni bunday lavozimlarga jalb qilishda biroz toʻsiq boʻlib turibdi. Qobiliyatli yosh mutaxassis ilmiy daraja olishi (mos ravishda maosh stavkalari koʻtarilishi) uchun, avvalo, vaqt va sharoit boʻlishi zarur. Oʻz vaqtida bunday masalalarni hal etishga katta eʼtibor qaratilgan edi. Aspirantlar, doktorantlar, tadqiqotchilarni sobiq Sovet Ittifoqining eng yetakchi bilim dargohlariga yuborish amaliyoti keng qoʻllanilgan. Natijada, yuqori malakali, ilmiy darajalarga ega milliy kadrlarni tayyorlash masalasi oʻz yechimini topgan edi. OOʻYlar bu tajribani qoʻllab, davlatimiz tomonidan yaratilgan imkoniyatlardan foydalanib, istiqbolli yoshlarni chet elga oʻqishga, malaka oshirishga, eng soʻnggi texnologiyalarni oʻrganishga koʻproq jalb qilishlari va ichki imkoniyatlarni ishga solgan holda yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarga boʻlgan talabni toʻldirishga eʼtiborni kuchaytirishi kerak.

Yetakchi mutaxassisning oliy oʻquv yurtida toʻgʻridan-toʻgʻri dars berishi, talabalarining diplom, tadqiqotchilarning ilmiy ishlariga rahbarlik qilishi, birgalikda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilishi oʻquv sifatini oshirishda muhim oʻrin tutadi. Tajribaga murojaat qilsak, masalan, OʻzMUning fizika fakultetida 60–80-yillarda talabalarga Fizika-texnika instituti direktori, akademik Sodiq Azimov, elektronika instituti direktori, akademik Ubay Oripov, astronomiya instituti direktori, akademik Vladimir Shcheglov, yadro fizikasi instituti boʻlim boshligʻi, akademik Rahim Begjonov, FANing muxbir aʼzosi Gʻiyos Umarov, “Foton” ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi bosh injeneri Sandler, akademik Muxtor Saidov va boshqalar maʼruza oʻqib, seminarlar olib borishgan. Yuqorida qayd etilgan tashkilotlarda talabalar kamida bir semestr davomida kurs va diplom ishlarini bajaragan, ularning diplom himoyalari nomlari tilga olingan yetakchi mutaxassislar qatnashgan. Bular bitiruvchilarning ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, zamonaviy asbob-uskunalarini qoʻllash, ulardan unumli foydalanish va ishlab chiqarishni takomillashtirish uquvlari shakllanishida

muhim oʻrin tutgan. Bunday bogʻlanish, oʻz navbatida, ilmiy-tadqiqot institutlari va shu kabi tashkilotlar uchun qobiliyatli, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va tanlash imkoniyatini yaratgan. Aytib oʻtish joizki, rahmatli ustozlarimiz yuqori saviyada saboq berish bilan birga talabaga nisbatan qattiqqoʻl va talabchan boʻlishgan, zaruratga qarab ularga moddiy yordam (qoʻshimcha ishlarga qabul qilish kabi) ham koʻrsatishgan. Keyingi yillarda bunday aloqalarni oʻrnatishga eʼtibor kamayganligi kuzatilmoqda. Buning sabablarini aniqlab, toʻsiqlarni bartaraf qilib, oʻzaro integratsiyani yoʻlga qoʻyish, qoʻyilgan talablarni bajarishda muhim oʻrin egallaydi.

Oʻqish-oʻrgatish sifati pasayishiga professor oʻqituvchilar sonini qisqartirish natijasida shtat birliklarining kamayganligi, ayrim kafedralarning yopilishi, xodimlarning mutaxassisligiga mos kelmaydigan kafedralarga oʻtkazilishi kabi har ham sabab boʻlmoqda.

Kafedra, laboratoriyalarda ilmiy yoʻnalishlar boʻyicha maktab tashkil qilgan yetakchi mutaxassislarning kamligi, tannarxi qimmat oʻquv va tadqiqot jihozlarning yetishmasligi yoki yoʻqligi talabalarda zamonaviy, amaliy, politexnik uquvlarning shakllanishiga, yoshlarning ilmiy darajalar olishiga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Masalan, respublikamizda atom elektrostansiyasini qurish va uni ekspluatatsiya qilish bilan bogʻliq masalalarni yechish uchun mingdan ortiq kadrlarni tayyorlash zarur boʻladi. Bizningcha, bu masalani hal etishda mavjud kafedralarning ilmiy salohiyati, moddiy-texnik bazasi yetarli emas. Bunday vazifalarni bajarish uchun OOʻYlardagi moddiy-texnik bazasi kuchli boʻlishi talab etiladigan baʼzi kafedralarni FA institutlari, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari qoshida tashkil qilish oʻz samarasini beradi. Oʻrganish va tajriba shuni koʻrsatadiki, avvallari universitetni rektordan tashqari bir yoki ikki prorektor, fakultetni esa dekan va uning oʻrinbosari boshqarar edi. Hozirgi paytda prorektor va dekan oʻrinbosarlarining soni toʻrt-beshtadan kam emas. Ularning har biriga xona va kotibalar ajratilgan. Bulardan tashqari oʻquv ishini tashkil qilish, boshqarish, uslubiy koʻrsatmalarni yaratish, moliyaviy hisoblash ishlari bilan shugʻullanuvchi oʻnlab xizmatchilar mavjud. Tan olish

kerakki, boshqaruv apparatining kengayib ketishi byurokratiyaning rivojlanishiga, turli-tuman statistik maʼlumotlarni toʻplash, kafedra mudiri, dekan va rektorlarning mustaqilligi pasayishiga olib keladi. Bugungi kunda raqamli texnikani turli tarmoqlarga joriy qilish va bu borada byurokratiyani kamaytirib, quyi bosqichdagi rahbarlarning javobgarligi va mustaqilligi oshirilsa, raqamli texnologiya oʻquv va boshqaruv tizimiga kengroq joriy etilsa, maqsadga muvofiq boʻladi.

Dunyodagi nufuzli universitetlarning budgeti, asosan, talabalarning soniga emas, olib borayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining muvaffaqiyatiga va ularning ishlab chiqarishga tatbiq qilinishiga bogʻliq. Oʻz vaqtida bunday amaliyot bizda ham qoʻllanilgan (hozir ham mavjud, ammo koʻlami past). Oʻqitish bilan birga bunday ishlarni amalga oshirish moliyaviy jihatdan foyda beribgina qolmay, balki zamonaviy, qimmatbaho asbob-uskunalarini sotib olish, tadqiqot ishlariga, ishlab chiqarishga oʻqituvchi va talabalarni jalb qilish, moddiy ragʻbatlantirish, muhimi, oʻqish sifatini oshirishga olib keladi. Aytib oʻtish joizki, aslida OOʻYlarda qoʻshimcha mablagʻ topish uchun sharoitlar yaratilgan. Har bir oʻquv yurtida koʻpgina muammolarni hal eta oladigan isteʼdodli professor oʻqituvchilar, talabalar mavjud. Bu borada yutuqlarga erishayotgan OOʻYlarning tajribasini ommaviy axborot vositalarida kengroq yoritish lozim.

OOʻYlarda shtat birliklari, ajratiladigan mablagʻ miqdori talabalarning soniga bogʻlab qoʻyilishi bilimi past, fanlarni oʻzlashtira olmayotgan talabalarni safdan chiqarish amaliyotini chegaralab qoʻydi. Biroz soha mutaxassislariga talab kamayib ketgan boʻlsa, bu yoʻnalishdagi OOʻYga qabulni kamaytirish lozim. Ammo bunday boʻlishi qiyin, chunki kontrakt-toʻlov asosida oʻqiydigan talaba qancha koʻp boʻlsa, moliyaviy tushum ham shuncha koʻp boʻladi.

Pandemiya barcha sohalar kabi taʼlimga ham oʻzining salbiy taʼsirini koʻrsatdi. Mashgʻulotlarning aksariyati onlayn oʻtkazildi va oʻtkazilmogʻa. Aslida, oʻqitishning bu usuli yangilik emas. Ammo bizning oʻquv yurtlarimizda masofadan oʻqitish usuliga deyarli eʼtibor berilmagan. Sharoit taqozosiga koʻra bu usulda tashkil qilingan mashgʻulotlarning koʻpini ilmiy-uslubiy jihatdan qoniqarli deb boʻlmaydi. Aksariyat darslar boʻr, doska va slaydlardan foydalangan holda passiv koʻrinishda amalga oshirilmoqda. Namoyish tajribalarini, mavzuga oid eksperimentlarni oʻtkazish, (internet tizimida mavjud boʻlgan) tez va sekin oʻtadigan koʻzga koʻrinmas jarayonlarni, model tasavvurlarni koʻrsatish kabilardan deyarli foydalanilmaydi. Ilmiy-oʻquv laboratoriyalari, ilmiy markazlar, klinikalar, ishlab chiqarish korxonalarida, qurilishda qoʻllanilayotgan asbob-uskunalar, texnikalar bilan tanishtirish, yetakchi mutaxassislarning master-klass chiqishlari amalga oshirilmayapti. Tinglovchilar bilimining nazorat qilinishini ham talab darajasida deb boʻlmaydi. Bu

usulda mashgʻulot oʻtkazishni yanada takomillashtirish zarur.

Rahbarimiz, jamiyatimiz talab qilayotganidek, insho yozishni bilmaydigan filologlarni, “bemorni tuzatish koʻp miqdordagi dorilarni yozib berishda”, deb hisoblovchi tibbiyot xodimlarini, koʻpriklari bitmasdan turib qulab tushuvchi quruvchilarni, ishlab chiqarish asbob-uskunalarini ishlatolmaydigan muhandislarni tayyorlashga chek qoʻyish kerak. Bunga erishish uchun esa qator muammolarni hal etish zarur. Taʼlim berish sifati pastligi bilan bogʻliq hamda diplomga ega boʻlsam boʻladi, degan istakda oʻqigan (malakasi past ekanligi yoki “tankasi” boʻlmagani uchun) oʻzining sohasi boʻyicha ishga joylasholmagan bitiruvchilar oʻz kasbidan uzoq boʻlgan malakasiz mehnat talab qilinadigan, maoshi past boʻlgan ishga kirishga majbur boʻlmoqdalar. Ularning oʻqish uchun sarflagan mablagʻlari bekor ketmoqda, bu esa oliy taʼlimning nufuzi yanada pasayishiga sabab boʻlyapti. “Maʼrifat” gazetasi (2021-yil 28-aprel, 17-son) maʼlumotlariga koʻra, hozirgi vaqtda 10 minglab oliy maʼlumotli oʻqituvchilar ishsiz ekan. Ammo mehnat bozorida malakali mutaxassislariga boʻlgan talab tobora ortmoqda. Bizningcha, hozirgi paytda taʼlimning sifati oshmagan, lekin unga oid toʻlovning miqdori oshib bormoqda. Taʼlimga kiritilgan sarmoya oʻzini oqlashi kerak. Bunday masalalarni hal etishda talabalarining diplom olish uchun emas, professional kasb egasi boʻlish uchun oʻqishga boʻlgan intilishlarini kuchaytirish lozim. Bunda bitiruvchilarning ishga joylashishida tanish-bilishlik, mahalliylik, yuqoridan bosim oʻtkazish, poraxoʻrlikka chek qoʻyish, shaffof raqobatga erishish eng muhim masaladir.

Respublikamizning bironta OOʻY reyting boʻyicha dunyodagi eng yaxshi mingta oʻquv yurtlari roʻyxatiga kirolmagan.

Xorijiy va mamlakatimizdagi OOʻYlarning oʻquv dasturlarini oʻzaro solishtirganda keyingi yillarda ancha qisqartirilganiga qaramasdan bizda hali ham oʻqitiladigan predmetlar soni ortiq ekanligi koʻrinadi. Natijada, talabalarimiz mutaxassisligi bilan aloqasi boʻlmagan fanlarni ham oʻqishga majbur boʻlmoqda.

Matbuotda oʻtgan yili DTM tishlonlarida qatnashgan abituriyentlarning 90 foizi 80 baldan (umumiy 189) past baho olganligi eʼlon qilindi. Ammo ularning attestatlaridagi baholari yuqori boʻlganligi maʼlum. Bundan ravshaniki, ularning bilimlari bilan baholari orasida nomutanosiblik mavjud. Bunday boʻlishiga asosiy sabab oʻquv yurtlarida oʻzi bergan attestat, diplom, ulardagi baholar uchun masʼuliyatning, javobgarlikning yoʻqligidir. Bizningcha, keyingi paytlarda taʼlim sohasida baho oʻquvchi va talabalarining bilim, uquv va malakalarini belgilovchi asosiy mezon boʻlmay qoldi. Bitiruvchilarning attestatlarida, sinov daftarlarida, diplom ilovasidagi baholar ularning bilim va mahoratlari koʻrsatkichi boʻlmay qoldi va ular mehnat bozorida hisobga olinmayapti.

Bilim va bahoning nomunosibligiga chek qo'yish, yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni yo'qotish uchun OO'Ylar tayyorlagan kadrlari mehnat bozoridagi talablarga mosligiga e'tibor qaratishi lozim.

Aytib o'tish joizki, DTM test savollari asosan o'quvchining nazariy bilimini aniqlashga qaratilgan. Ularning uquv va mahoratlari, ijodiy fikrlash qobiliyatini baholashga juda kam e'tibor qaratiladi. Bu esa amaliy usulda o'qitishga bo'lgan e'tibor va, o'z navbatida, o'quvchilar politeknik ta'limi, bilimining pasayib ketishiga sabab bo'lmoqda.

Avvalo, talabaning o'zlashtirishi o'z kimga — talabaga, OO'Yga, ish beruvchiga kerakligini aniqlab olishimiz zarur. Odatda, "a'lo", "yaxshi", "qoniqarli" baholarga o'qigan bitiruvchilarga diplom beriladi. Diplomdagi baholariga ko'ra lavozimlarga joylashish tanlov asosida amalga oshirilsa, foydali bo'ladi. Masalan, bir korxonada bir OO'Yning ikki bitiruvchisi muhandis lavozimiga ishga qabul qilinsa, qizil diplomga ega bo'lganining maoshi birmuncha yuqori bo'lishi kerak. Bitiruvchilarning bilimi diplomdagi baholarga munosib emasligi aniqlansa, buning uchun mas'ul bo'lgan shaxslarning javobgarligini oshirish, fan o'qituvchilari, rahbariyatning maoshiga ta'sir ko'rsatish, tashkiliy masalagacha ko'rib chiqish, litsenziyadan mahrum qilish kabi choralarini o'qitish lozim. Bunday yo'riqlar amalga oshganidan so'ng qabulga oid imtihonlarning bosqichma-bosqich OO'Ylarning o'ziga topshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu o'z navbatida ularning nufuzini ko'tarib, test tizimiga sarflanadigan milliard-milliard mablag'ni o'quv yurtlari moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga yo'naltirish imkonini beradi.

Oliy ta'lim sifati pastligining sabablaridan yana biri talabalarning (jumladan, pedagoglarning) xorijiy tillarni yaxshi bilmasliklaridir. Maxsus fanlarga oid ma'lumotlar, asosan, chet tillarda bayon qilingan. Maktablarda chet tilini o'rgatish birinchi sinfdanoq boshlansa-da, uni o'zlashtirishni qoniqarli deb bo'lmaydi.

Talabaliq oltin davrim, degan ibora mavjud. Yangi O'zbekistonning OO'Ylariga infrastrukturasi rivojlangan, qulayliklari keng bo'lgan yotoqxonalar, madaniyat saroylari, sport komplekslari, oshxonalar, hordiq chiqarish maskanlari bo'lishi yarashadi. Ammo bu masalalarni hal etish ham biroz kech qolmoqda. OO'Ylarning bundan 50–60 yil avval qurilgan inshootlarida o'zgarishlar deyarli kuzatilmayapti. Ravshan-ki, Vatanimizning ilg'or mamlakatlar orasidan o'rin olishi, xalqimiz farovonligini ta'minlash, yoshlarimizning ma'rifatli bo'lishi kabi maqsadlarga erishish ko'p jihatdan ta'lim tizimining shaffof, ravon, sifatli ekanligiga bog'liq. Bu borada mutaxassislar, jamoatchilik tomonidan ta'limni rivojlantirishga oid berilayotgan takliflar muhokama qilinmay, e'tiborsiz qolmasligi lozim. Bunday vazifalarni bajarishda ta'lim vazirliklari, tashkilotlar qoshidagi mutaxassislar, ayniqsa, faollik ko'rsatishlari talab qilinadi.

Bahodir YO'LDOSEV,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan  
xalq ta'limi xodimi,  
dotsent

## Huquqiy pedagogika

Ta'lim jamiyat hayotining asosiy ijtimoiy sohalaridan biri sifatida bilimlar mazmuni, ularni talqin qilish va yetkazish usullari bilan davr talablariga muvofiq o'zgarishda va yangilanmoqda. Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilarining kasbiy malakasini rivojlantirish, ular bilan ishlashda yangi yondashuvlarni izlash zarurati yuridik o'quv yurtlari uchun ham dolzarb vazifaga aylanmoqda.

# Bizga inson taqdirini adolatli hal qiladigan kadrlar kerak

Asrlar davomida sayqal topib kelgan, faqatgina XX asrga kelib maxsus bilimlar sohasiga aylangan oliy pedagogik ta'lim haqida so'z borganda Sharq allomalarining asarlarida azal-azaldan ta'lim-tarbiyaga oid didaktik yondashuvlar, ustoz va shogird munosabatlari, ularning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini o'zining eng sara namunalarida aks etganligini qayd etish joiz. Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri", "Baxt-saodatga erishuv to'g'risida" kabi asarlarida ta'lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim-tarbiya usullari va uslubii haqida fikr yuritgan. Buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy tomonidan 1481–1482-yillarda yozilgan "Vaqfiya" asarida ilmparvarlik va insonparvarlik g'oyalari asosida hatto uning mudarrislar va talabalar moddiy ta'minotiga g'amxo'rlik qilganligini ko'ramiz.

Davlatimiz rahbari "...o'qituvchilarning o'z fanini bilishi, pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligidan kelib chiqib, toifa berish mezonlari ham qayta ko'rib chiqiladi. Yana bir bor takrorlayman, jamiyatda o'qituvchi kasbi eng nufuzli va obro'li kasb bo'lishi lozim", deya ta'kidlagan edi.

Pedagogika oliy o'quv yurtida tahsil olayotgan talaba bo'lajak kasbga maktab amaliyoti qo'llangan holda tayyorlansa, huquqshunos talaba pedagogik faoliyatga maxsus o'qitilmaydi. U yuridik oliy o'quv yurtining o'qituvchisi bo'lganidan so'ng dastlabki faoliyatida o'zigaicha ishlagan o'qituvchilarning yutuq va kamchiliklarini o'rganadi. Bu o'rinda huquqshunos o'qituvchi faqatgina o'z fanini bilishi yetarli bo'lmay, yoki bu darajada pedagogik mahorat, pedagogik jarayon, uning turli shakl va uslublari, yoshlar psixologiyasi, kasbiy etikani ham yaxshi tushunishi lozim bo'ladi.

Bunda ta'lim oluvchilarning ma'lumotlar va tegishli ko'nikmalarni o'zlashtirishi darajasini oshirishga qaratilgan o'quv jarayonini tashkil etishning samarali shakllari va nstandart yondashuvlari alohida o'rin tutadi.

Yuridik oliy o'quv yurtidagi pedagogik jarayon o'qituvchining talaba ongi va xulq-atvoriga, uning kelajakdagi mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy kasbiy bilimlarni olishga qaratilgan rejali, tizimli va uzoq muddatli ta'lim-tarbiyaviy ta'sirini anglatadi. Bunday muhitdagi pedagogik jarayon o'qituvchi-talaba munosabatlariga asoslangan bo'lib, unda yuridik ta'lim muassasasidagi pedagogik jarayon ikki muhim jihat, ya'ni yosh va axloqiy xususiyatlarga ega bo'ladi.

Litsey(maktab)ni bitirib kelgan yosh talaba, yangi ta'lim jarayoni makonining

muhitiga kirib borishi muayyan vaqt talab etadi. Oliy o'quv yurti o'qituvchisi talaba, o'rta maxsus o'quv yurtidan farqli o'laroq, maxsus fanlarni o'zlashtirishda o'z ustida mustaqil ishlashi, ya'ni mustaqil bilim olish ko'nikmasi shakllanishida muhim o'rin tutadi. Yuridik oliy o'quv yurti talabani endilikda shaxs sifatida shakllantiradi, kasbiy faoliyatiga taalluqli bilimlar bo'yicha tahsil berib, uni kelgusidagi ko'p qirrali murakkab mehnat faoliyatiga tayyorlab boradi.

Yuridik o'quv yurtini tamomlagan talabalar sudya, prokuror, tergovchi, advokat sifatida kelgusida ko'plab insonlarning taqdirini adolatli va to'g'ri hal qilishlari uchun yuksak insoniy fazilatlariga ega bo'lishlari ham muhim.

Ammo yuridik oliy o'quv yurti o'qituvchisining pedagogik faoliyatidagi markaziy masala ta'lim jarayoni hisoblanib, unda talabaning maxsus bilimlar va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishi bir-lamchilik qiladi. Zero, litsey (kollej), o'rta maktabda tahsil olayotgan yoshlar asosan, tarix, ona tili va adabiyot, matematika kabi umumta'lim fanlari bilan bog'liq bilimlarni olgan bo'lsa, oliy o'quv yurtida ularning asosan kasbiy bilimlarga oid maxsus axborotni olishlari nazarda tutiladi. Shu o'rinda o'quv jarayoni davomida huquqshunos talaba axloqiy ta'limni o'tashi, jumladan, kasb etikasini o'rganishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Faol o'qitish turlaridan biri sifatida dialog, munozara, materialni jamoaviy muhokamaga asoslangan interaktiv ma'ruzalar, talabalarning "qayta aloqa"-si elementlaridagi guruh ishi ham muhim hisoblanadi. Ushbu usullar amaliy yo'nalishga, o'rganishning ijodiy xususiyatiga, interfaollikka, talabalarning bilim va tajribasidan foydalanishga, ularning ishlarini tashkil etishning guruh shakliga, ularning barcha hissiyotlarini o'quv jarayoni, faol o'rganishga yo'naltiradi. Shuningdek, ta'lim jarayonida texnik vositalardan foydalanish usuli pandemiya sharoitida ham (o'quv filmlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va h.k.) talabalarda o'quv materialini o'zlashtirish borasida katta qiziqish uyg'ota olishini ko'rsatmoqda. Ma'lumki, bu borada turli xil o'quv dasturiy mahsulotlari ham ishlab chiqilgan, xususan, avtomatlashtirilgan o'quv tizimlari, elektron o'quv kurslari, elektron o'quv majmualari, elektron darsliklar, raqamli ta'lim resurslari, axborot-so'rovnomatizimlari, banklar va ma'lumotlar bazalari ham mavjud.

Yuridik oliy o'quv yurtidagi amaliy mashg'ulotlarda talabalar huquqiy normalarni muayyan hayotiy vaziyatlarga tatbiq etish, me'yoriy hujjatlarni talqin qilish ko'nikmalari, ko'plab huquqiy hujjatlar

orasida tegishli me'yorlarni topish qobiliyati, shuningdek, mustaqil fikrlashlarini namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladi, o'z pozitsiyasini himoya qilish qobiliyatini shakllantiradilar.

Amaliy o'qitish usuli o'quv yurti dasturi va rejalaridagi huquqiy fanlarni o'rganishda talabalarning auditoriyadagi mashg'ulotlardan tortib huquq-tartibot idoralarda ishlab chiqarish amaliyotini o'tash jarayonini qamrab olgan tadbirlarni

o'z ichiga oladi. Bu o'rinda oliy o'quv yurtining mazkur idoralar bilan hamkorligi o'quv jarayoni ehtiyojlari, maqsad va vazifalarini ro'yobga chiqarishdagi o'zaro manfaatli hamjihatligida bo'lishi maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga zamonaviy huquqiy pedagogikaning soha mutaxassislarini tayyorlashdagi o'rni muhimligi inobatga olinib:

— birinchidan, yuridik oliy o'quv yurtlarida mazkur soha bo'yicha dastlabki bilimlarni shakllantirish maqsadida bakalavriatda fanning boshlang'ich bilimlarini berish, magistratura bosqichida esa maxsus kursni o'quv jarayoniga kiritish zarur;

— ikkinchidan, bu borada xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rganish va o'quv jarayonida foydalanishni tizimli ravishda amalga oshirish ham muhim.

Shuningdek, hozirgi zamon pedagogikasining ikki asosiy tadqiqot va texnologik modelidan ularning uyg'unligi tamoyiliga asoslangan holda samarali o'quv jarayoni tizimini tashkil etishda foydalanish zarur.

Qolaversa, ta'limning samarali texnologiyalarini loyihalash, ishlab chiqish va amalga oshirish tegishli mutaxassislarining, xususan, o'qituvchilari, psixologlar, sotsiologlar, kompyuter dasturichilarining sa'y-harakatlarini umumlashtiradigan hamkorlikni talab etadi.

Chunonchi, yurtimizda kechayotgan huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayoni, xususan, davlat qurilishini erkinlashtirish, sud-huquq sohasini liberallashtirish, mavjud qonunchilikni yangilab berish ehtiyojlari ta'lim muassasalari oldiga dolzarb vazifalarni qo'yimoqda. Bu huquqshunos kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini doimo talab darajasida bo'lishini ta'minlash fundamental asosga va muntazam tizimli ko'rinishga ega bo'lishi lozimligini taqozo etyapti. Shu bois, yuridik ta'lim ushbu muammolarning samarali yechimlarini topish yo'lida izlanib, o'z ichki salohiyati va imkoniyatlarini kengaytirib bormoqda. Zero, soha uchun malakali kadrlar tayyorlash masalasi so'nggi yillarda alohida dolzarblik kasb etyapti. Demokratik yo'nalishda yangilanayotgan jamiyat sharoitida inson huquqlarini qat'iy ta'minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq hamda manfaatlari muhofazasini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini yuksaltirish, fuqarolarni qonunga itoat va hurmat ruhida tarbiyalash ustuvor vazifamiz hisoblanadi.

Omonulla MUHAMMADJONOV,  
yuridik fanlar doktori,  
professor

Targ'ibotchi kundaligidan

# Yuqumli ezgulik

Ijodiy va ma'naviy ishlar bo'yicha targ'ibotchi lavozimi joriy qilinmasidan oldin ham bu maktabga ko'p kelganman. O'shanda maktab joylashgan "Quyosh" mahallasidagi kutubxonada bir necha bor ustozim, mehnat faxriysi Vazira Sobirova taklifi bilan o'tkaziladigan tadbirlarni tashkillashtirishga ko'maklashib yurardim. Mahalladagi 46-maktabning faol o'qituvchi va o'quvchilari kutubxonaga muntazam kelib turishar, Vazira opa: "Davronbek, men sizni maktab rahbariyati bilan tanishtiraman va yana o'zingiz uyushma a'zosisiz, "Yosh shoir" to'garagi ochmaysizmi?" deya taklif bergan.

Shundan keyin maktab adabiy tadbirlarida qatnashib, ijodiy jamoa va o'quvchilar bilan yaqindan tanishib oldim. Ularning ijod namunalari birma-bir o'qirganman, 11-"B" sinf o'quvchisi Inoyat Komiljon qizining qatralari e'tiborimni tortdi. U bir qatrasini "Shodlik keltiruvchi xazina" deb nomlabdi. "Kitob ajib xislatlarni ko'ruvchi ko'zgu, fikrlarni nurlantiruvchi, shodlik keltiruvchi ajib xazinadir!" degan jumalari esa kutubxonlikni yaxshi anglaganidan darak. Yana bir qatrasini esa "Yangi bahor" deb nomlabdi. Qoramamda bir kompozitsiya bor edi. Unda farzand hayotini saqlab qolish uchun jarrohlik amaliyoti zarurligi, buning uchun katta mablag' kerakligi aks etadi. Otada esa buncha pul yo'q. Biroq u ortga chekinmaydi. "Yo'q yo'q... bunday bo'lishi mumkin emas. Men albatta pul topaman va qizimni davolataman", deya o'zi va ayoli Oy-dinoyni ovutadi. Shunday kunlarning birida ko'chada bir notanish kishi uni to'satdan to'xtatadi va qachonlardir qilgan ezgu ishini eslatib, otaga yordam beradi. Oqibatda qizaloq sog'ayib ketadi. Bu kichik qatradan ayrim adabiy

kamchiliklar ham ko'zga tashlansa-da, chuqur ma'no bor edi. Inoyatga yanada ko'proq yozishi va o'qishi kerakligi haqida aytmoqchi bo'ldim ham, ammo bitiruv imtihonlariga yaqin qolgani bois fikrini bo'lgim kelmadi.

Inoyatning oltin medal olganini eshitib, ota-onasi va o'zi bilan uchrashmoqchi bo'ldim, ammo otasi ruxsat bermadi. Ular yaqinda koronavirus kasalligini o'tkazgan va karantin qoidalari amal qilayotgan ekan. Shu sababli unga savollarimni xat orqali yubordim va quyidagicha javob oldim:

"O'qituvchimning doimiy rag'batlantirishi tufayli darslarni o'z vaqtda va mustaqil bajarishga harakat qilardim, — deydi u qanday qilib faqat a'lo baholarga o'qigani haqida so'raganimda. — Ustozimning men haqida ota-onamga aytgan ijobiy fikrlari, menga bo'lgan ishonchi hamisha kuch bag'ishlab turardi. Shu zaylda boshlang'ich sinfni a'lo baholar bilan yakunladim. Mashg'ulotlarda past baholar olmaganman. Yaxshi deb ta'riflanadigan "4" baho (bir-ikki marotaba olgan vaqtlarimda) ham meni anchagina ranjitardi. Biroq bu hol yanada

harakatchan bo'lishga undardi va bahoni to'g'irlashga uringanman. Har bir fanning o'ziga xosligi bor. Shu bois barcha fanni sevib o'qiyman. Ayniqsa, xorijiy tillarni o'rganish va adabiyotga mehriim bo'lakcha. Asosiy maqsadim, shunchaki a'lo baholar olish emas, balki bilim olishga bo'lgan ishtiyoq edi. Yuqori baholarni esa vaqtini bekorga sovrurganman va o'z ustimda ishlaganim samarasi deb o'ylayman.

Dono xalqimiz bejiz "Ustoz otangdan ulug'" deya ta'riflamaydi. Sababi, muallim har bir o'quvchisini o'z bolasidek ko'radi, mehr bilan ta'lim beradi va yuqori zafarlarni qo'lga kiritishida hamisha qo'llab-quvvatlaydi. Men mana shunday fidokorona fazilatlarini sinf rahbarim, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Gulnora Ali-muhammedova ustozda ko'rganman.

Xulosa qilib aytganda, 11 yillik umumiy o'rta ta'lim maktabini a'lo darajali shahodatnoma bilan yakunlashim, saralangan o'quvchilar safida oltin medal bilan taqdirlanishim barchasi, avvalo, Ollohning yuksak in'omi va marhamatidir. Qolaversa, bu natijalar mening emas, balki eng qadrlilinsonlarim — ota-onam va shuningdek, ustozlarimning mehnati samarasi!"

Inoyatning yozgan mashqlari ruhi-dan taniqli shoirimiz Matnazar Abdulhakimning mazkur satrlari ruhi bor edi:

*Tarqalishi bunchalar qiyin,  
Salga tinar bodi saboday.  
Qani endi yuqumlilikka  
Ezgulik ham bo'lsa... vaboday.*

Qaniydi, uning mashqlaridagi samimiylig, beg'uborlik shu kunlarda boshimizdan o'tayotgan kasallikday yuqumli bo'lsa. Va bu ezgulik yurtimizda tahsil olayotgan barcha o'quvchilar harakatida tarannum bo'lsaydi, deya ich-ichimdan tezroq tuzalib ketishlarini Ollohdan tilab qolaman.

Davron RAJAB

Maktabimiz O'zbekiston tumanining qoq markazida joylashgan. Maktabda 108 nafar pedagog o'quvchilarga saboq berib kelmoqda. Ular orasida "Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlanganlar ko'p. Ta'lim muassasamizda darslar o'zbek va rus tillarida olib boriladi.

## Maktabimiz — faxrimiz

Maktabimiz 2019-yilda "Eng yaxshi umum-ta'lim maktabi" ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida g'olib bo'lib, viloyat hokimining diplomi va esdalik sovg'alarini qo'lga kiritdi. Shuningdek, "Eng obod ta'lim muassasasi", "Eng yaxshi bezatilgan ta'lim muassasasi" tanlovlarida ham faxrli o'rnlarni egalladi.

O'quvchilarimiz bilan ham faxrlansak arziydi. Ular "Biz huquqbuzarlik va jinoyatchilikka qarshimiz" ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida 1-o'rinni qo'lga kiritdi. 2018-yilda o'tkazilgan "Konstitutsiya — baxtimiz poydevori" tanlovida 11-sinf o'quvchisi Diyorbek Mahmudov viloyatda birinchi, respublikada 4-o'rinni egallashga muvaffaq bo'ldi. Mental arifmetika bo'yicha Muhammadso'diq Mamadaliyev Moskva shahrida o'tkazilgan xalqaro olimpiadada 3-o'rinni, Boku shahrida 2-o'rinni egalladi. Viloyat bo'yicha o'tkazilgan "Kitobxon o'quvchi" tanlovida 5-sinf o'quvchisi Barnoxon Hazratqulova 2-o'rinni oldi.

Ta'lim muassasamiz va o'quvchilarimiz qo'lga kiritayotgan yutuqlarda, albatta, har bir pedagog xodimning hissasi katta. Maktabimiz kelajakda bundan-da katta marralarni ko'zlab olg'a intiladi.

Rustamjon HAKIMOV,  
O'zbekiston tumanidagi  
49-maktab direktori

Iftixor

## 24 nafar o'quvchim talaba bo'ldi!

11 yillik ta'limning qayta joriy etilishi xalq ta'limi tizimiga ko'plab muvaffaqiyatlarni berdi. Avvallari bir o'quvchini 9 yil o'qitib, o'z fanimiz bo'yicha olimpiadaga endi tayyorladik, deganimizda kollej yoki akademik litseyga kuzatadigan vaqt bo'lib qoldi.



Farzandimizdek bo'lib qolgan yigit-qizlarni 5-sinfdan oliyogoh ostonasigacha kuzatib qolish, fan olimpiadalari-ni respublika bosqichlari-

ta'lim yo'lga qo'yilganining ilk yilida o'quvchim Dilnoza No'monova fan olimpiadasining respublika bosqichida ona tili va adabiyot fanidan faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritib, muddatidan oldin imtiyozli ravishda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi bo'lgan edi.

Joriy yilda ham o'quvchilarim erishgan yutuqlardan boshim osmonga yetdi. Xususan, 11-"A" sinfni 28 nafar o'quvchi tamomlagan bo'lsa, shundan 24 nafar respublikamizdagi nufuzli OTMLar-ni talabasi bo'lishdi. 1 nafar o'quvchimiz xorijdagi oliyogoh talabasi bo'ldi. Sinf bo'yicha umumiy sifat ko'rsatkichi hozircha 89 foizni tashkil etyapti. Ham sinf rahbari sifatida, ham shu qorako'zlarning sevimli fani o'qituvchisi sifatida o'quvchilarimning bu yu-

tuqlari qalbimga cheksiz iftixor baxsh etdi.

O'quvchilarimdan 4 nafari ijtimoiy yo'nalish (2 ta davlat granti, 2 ta to'lov-kontrakt), 11 nafari texnika yo'nalishi (7 tasi davlat granti, 4 tasi to'lov-kontrakt), 4 nafari tibbiyot yo'nalishi (2 tasi davlat granti, 2 tasi to'lov-kontrakt), 6 nafari esa iqtisod yo'nalishi (2 tasi davlat granti, 4 tasi to'lov-kontrakt) bo'yicha talaba bo'lishdi.

Ma'lumot o'rmda shuni ham qayd etib o'tgim keldi, sinfimizda 2 ta oltin, 2 ta kumush medal olgan o'quvchim bor edi. 2 ta kumush, 1 ta oltin medal olgan o'quvchim davlat granti, 1 ta oltin medal olgan o'quvchim to'lov-kontrakt asosida talaba bo'ldi.

Xuddi shu sinfning 3 o'quvchisi ingliz tilini bilish darajasi bo'yicha IELTS sertifikatini oldi. Uchala o'quvchim ham davlat granti asosida tala-

ba bo'ldi. O'quvchim Dur-dona Rahmonova esa 5-sinf-dan buyon "Bilimlar bellashuvi", fan olimpiadalarida ona tili va adabiyot fanidan ishtirok etib kelardi. Olimpiadalarga tayyorlanish jarayonlarida o'quvchilarning bilimlari bir necha baravar oshib boradi. Durdonada ham mana shu takrorlashlar, tinimsiz mehnat natija bermasdan qolmadi. U Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetiga davlat granti asosida qabul qilindi.

Shogirdlarimning muvaffaqiyatlari xuddi o'zimning yutuqlarimdek meni cheksiz quvontiradi. Bu natijalar zamirida, albatta, davlatimiz tomonidan yoshlarga qaratilayotgan e'tibor, ularning sifatli ta'lim olishlari uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, o'quvchilarning tinmay izlanishlari, malakali, fidoyi ustozlarning mehnatlari katta o'rin tutadi.

Dilnoza BERDIYEVA,  
Kitob tumanidagi  
1-IDUMining ona tili va  
adabiyot fani o'qituvchisi

## Ta'limda innovatsiya

# Eng yaxshi sinf maxsus xonada o'qiydi

Joriy yilning 6-sentabr kuni mamlakatimizdagi barcha maktablarda, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassalarida yangi o'quv yilini boshlash bilan bog'liq bayram tadbirlari o'tkazildi. Bu bayram barchamiz uchun muqaddas bo'lgan Vatanimiz mustaqilligining 30 yillik to'yi nishonlanayotgan kunlarga to'g'ri kelishi yoshlarimiz hayotida unutilmas sana bo'lib qoladi.



Ana shunday qo'shaloq bayramlarni ketma-ket nishonlayotgan Andijon viloyati Shahrixon tumanidagi 63-umumta'lim maktabi o'quvchilari uchun yana bir yangilik yuz berdi. Gap shundaki, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimlari tomonidan taklif etilgan yangi zamonaviy innovatsion g'oya hayotga tatbiq qilina boshlandi. Avvaliga bu g'oyaning mazmuniga ko'pchilik yaxshi tushunmadi. Hattoki ayrimlar bu ishning kelajagi yo'q, deb aytishdi. Shunday bo'lsa-da loyiha muallifi, shu institut bo'lim boshlig'i, fizika-matematika fanlari nomzodi Abdumajid To'rayev o'z fikrida qattiq turgan holda hech kim kutmagan ishga qo'l urdi. U o'z g'oyaning to'g'ri ekanini isbotlash va sinovdan o'tkazish uchun bir vaqtlar o'zi o'qigan Shahrixon tumanidagi 63-maktabni tanladi. Yangi g'oyaning kelajagi borligini o'z vaqtida tushunib yetgan maktab rahbariyati muallifni qo'llab-quvvatlad. Avvaliga loyihaning nizomi tayyorlandi. So'ngra loyiha institut xodimlari o'rtasida, 63-umumta'lim maktabi jamoasining umumiy yig'ilishida hamda Andijon davlat universitetining "Fizika" kafedrasida professor-o'qituvchilari ishtirokida keng muhokama qilindi va loyihaga ijobiy baho berilib bir ovozdan ma'qullandi.

Maktabdagi yangi o'quv yilining ochilishiga bag'ishlangan tadbirdan so'ng maktabning katta majlislar zalida mamlakatimizda birinchi marta tatbiq etilayotgan "Sog'lom raqobat" loyihasining dastlabki nishona natijalari bilan tanishish va shu loyihani tuman va viloyat miqyosida yanada kengroq targ'ib qilish masalalariga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi.

Ushbu tantanali tadbirda g'oya muallifi A.To'rayev, Andijon davlat universiteti professori I.Karimov, shu universitet dotsenti V.Abdumajidov, Shahrixon tuman xalq ta'lim bo'limi mudiri B.Matboboyev, Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika

ilmiy-tadqiqot instituti laboratoriya mudiri Y.Saydimov, tumandagi bir qator maktab rahbarlari va o'qituvchilari, maktab jamoasi hamda yuqori sinf o'quvchilari ishtirok etdi.

Shuningdek, loyiha nizomida ko'p yillar davomida yoshlarga bilim berib, hozirda olamdan o'tgan ustozlarni xotirlash maqsadida bir qator ishlarni amalga oshirish kerakligi ko'rsatib o'tilgan. Ana shunday ustozlardan biri shu maktabga ko'p yillar rahbarlik qilgan inson Abdulrahim Dehqonov edi. Bir chorak davomida barcha ko'rsatkichlar bo'yicha eng yuqori ball to'plagan sinf o'quvchilari yangi chorak davomida aziz ustoz A.Dehqonov nomi berilgan maxsus o'quv xonasida bilim oladi. Chorak davomida o'qish davrida zarur bo'ladigan barcha o'quv qurollari tekis beriladi. Quvonarlisi shuki, bu ishlarga shu maktabning sobiq o'quvchilari o'z homiyliklari bilan yordamga kelmoqdalar.

Bu g'oyani amalga oshirish jarayonida institut xodimlari navbatma-navbat xizmat safariga chiqib joylardagi tanlangan maktablarda fizika o'qituvchilariga dars o'tish va laboratoriya ishlarni tashkil etish bo'yicha yordam berib kelmoqdalar. Xizmat safari hisobotlaridan bu borada ham talaygina muammo va bajariladigan ishlar borligi ma'lum bo'ldi. Shu sababli institut rahbari, professor Sharifa O'tamurodovaning ko'rsatma va topshirig'i bilan yangi turdagi nanotexnologik yutuqlarni tatbiq qilgan holda umumta'lim maktabi o'quvchilari va oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun zamonaviy laboratoriya ishlarni loyihalashtirish hamda tayyorlash uchun institutning iqtidorli ilmiy xodimlaridan iborat ilmiy guruh tuzildi. Ushbu guruhga fizika-matematika fanlari nomzodi Abdumajid To'rayev rahbarlik qila boshladi. Qisqa vaqt ichida guruh tomonidan o'nta zamonaviy laboratoriya ishlari va "Tesla" tajribalarini namoyish qilish qurollarining loyihalari tayyorlandi. Hozirgi kunda ushbu sinov jarayonlari o'tkazilmoqda.

Shu bilan birga poytaxtdan uzoq-

da joylashgan tumanlarda fizika fani o'qitishdagi muammolar chuqur o'rganilganda o'quvchilarga fizik masalalar yechishni o'rgatishda ham hal etilmagan masalalar borligi ma'lum bo'ldi. Deyarli barcha maktablarda fizika fani o'qituvchilari masalalar yechish bo'yicha zamonaviy ta'lim talablariga javob beradigan uslubiy manbalarning juda kamligini ta'kidladilar.

Bu bo'yicha ham institut xodimlari chuqur mulohaza va muhokamalaridan so'ng, Abdumajid To'rayev masala ishlash sir-asrorlarini yaxshi biladigan va shu borada yetarli tajribaga ega bo'lgan xodimlarni o'z yoniga olib, bir oy muddat ichida fizikadan masala va misollar yechish uslubiyatlariga bag'ishlangan ellikdan ortiq risola va qo'llanmalarni o'rganib chiqdilar hamda ulardagi kamchilik va yutuqlar chuqur tahlil qilingach, olingan ma'lumotlar asosida yangicha turdagi masalalar yechish usuliga asos soldilar. Shu tariqa "Fizikadan masala yechishni o'rganamiz" deb atalgan yangi besh jildlik risola yuzaga keldi. Hozirgi kunda fizika-matematika fanlari doktori, professor Sh.O'tamurodova tahriri ostida yaratilayotgan yangi risolaning so'nggi beshinchi jildi tamomlanib, muhokama uchun institut rahbariyatiga topshirildi.

Shunisi e'tiborliki, institut xodimlarining beg'araz yordami bilan tanlangan maktablarda deyarli barcha sohalarida quvonarli o'zgarishlar yuzaga kelgan. Birgina Shahrixon tumanidagi 63-umumta'lim maktabidagi o'zgarishlarni kuzatib ekanimiz bunga amin bo'lamiz. Maktab o'quvchilari o'tgan to'qqiz oy davomida viloyat maktablari o'rtasida o'tkazilgan musobaqa va ko'rgazmalarda g'olib bo'lishgan yoki faxrlari o'rinlarni egallagan. Maktabda yosh ixtirochilar to'garagi ochilgan bo'lib, unda o'ttizdan ortiq o'quvchi zamonaviy texnologiyalar asosida turli xil yangi qurollarni yasashni o'rganmoqda. Yana bir fakt: o'tgan yili shu maktabni tamomlagan yoshlarning 11 nafari oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirgan bo'lsa, bu yil ularning soni 21 ga yetgan. O'tgan o'quv yili yakunlari bo'yicha maktabning 10 nafar eng a'lochi o'quvchisi "Sog'lom raqobat" loyihasi homiylari ko'magida Samarqand, Buxoro va Toshkent shaharlariga sayohat qilib qaytishdi.

Maktabda o'tkazilgan tadbir so'ngida tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri R.Matboboyev yangi loyiha mualliflariga minnatdorchilik bildirdi va keyingi chorakdan boshlab yangi loyihani tumandagi barcha maktablarda tatbiq etish maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidladi.

Xursandbek ARABBOYEV

Muallif olgan suratlar.

## Ta'kid

*So'nggi yillarda yurtimiz rivoji va xalq farovonligi yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar jadallashdi. Buni xalqimizni yillar davomida qiynab kelgan muammolarga tez fursatda yechim topilayotganidan ham bilish mumkin. Ayniqsa, kelajagimiz yaratuvchilari bo'lgan yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan e'tibor yanada kuchaydi. So'nggi besh yilda ta'lim va ilm-fan taraqqiyotining yangi bosqichi boshlandi. Prezidentimizning 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi hamda o'tgan yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari asosida tizimli ishlar va islohotlar amalga oshirilmogda.*

## Orzu-umidlar ro'yobi

Ushbu sohalarini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayapti. Olib borilayotgan ijobiy ishlar samarasi o'laroq, yurtimizda so'nggi yillarda 64 ta yangi oliy ta'lim muassasasi tashkil etilib, ularning soni 141 taga yetkazildi. Qabul kvotasi 3 barobar oshirildi. Bitiruvchi yoshlarni oliy ta'limga qamrab olish darajasi 28 foiz bo'ldi.

Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan barcha oliy ta'lim muassasalari qatorida so'nggi yillar M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiali uchun ham keskin yuksalish yillari bo'ldi. Jumladan, 2017-2018-o'quv yilida mavjud bakalavriyat ta'lim yo'nalishlari negizida ilk bor magistratura ta'lim dasturlari tashkil etildi. 2019-2020-o'quv yilidan boshlab O'zbekistonning ikkita yetakchi oliy ta'lim muassasasi — O'zbekiston Milliy universiteti va Buxoro davlat universiteti bilan hamkorlikda magistratura mutaxassisliklari bo'yicha "Ikki tomonlama diplom" berishga mo'ljallangan qo'shma ta'lim dasturlarini tashkil etdik. 2020-2021-o'quv yilida "Filologiya" (rus tili va adabiyoti) hamda "Reklama va jamoatchilik bilan aloqalar" nomli yangi bakalavriyat ta'lim yo'nalishlari ochildi. Avvalgi yillarga solishtirganda Filialga qabul kvotasi ikki barobar oshirildi.

Maqsadimiz oliygohimizni eng nufuzli universitetlar darajasiga olib chiqish, yoshlarga sifatli ta'lim berish, O'zbekiston Respublikasi uchun yuqori malakali, vatanparvar mutaxassislarni tayyorlashdir.

Bu yil jonajon O'zbekistonimiz mutaqqiliga o'ttiz yil to'ldi. Biz mustaqil mamlakat farzandlarimiz. Vatanimiz yanada rivojlanishi va gullab-yashnashi yo'lida o'z hissamizni qo'shishga doimo tayyormiz. Zero, bu bizning kelajak avlod oldidagi vazifamiz va muqaddas burchimizdir.

Erkin SAYDAMATOV,  
M.V.Lomonosov nomidagi  
Moskva davlat universitetining  
Toshkent shahridagi filiali ijrochi direktori

# "Ma'rifat"li kunlar nafasi

Ikkinchi kursda o'qirdim. Maktabni tugatgunicha kaftdek qishlog'idan nariga o'tmagan o'smir uchun azim Toshkent torlik qilardi. Imkoni bo'lsa-yu, "pir" etib uchib ketsa... Shunday mahzun kunlarning birida ikki qog'ozgina narsa qoralab, sarlavhasini "Onamga maktub" deb qo'ydim. Bu mening "debyutum" edi. U maqolamdi, badiami, hikoyami... to'g'risi, janri haliyam noma'lum. Harqalay, o'qisa bo'ladigan bir narsa-da! O'zim qayta-qayta o'qiyverib yodlab olgandim. Lekin bu "asar" endi dunyo yuzini ko'rishi lozim edi. Buning uchun nima qilmoq kerak?



– Yozgan bo'lsangiz juda yaxshi, birorta gazetaga bering! – dedi o'qituvchimiz Yusuf Hamdamov. – Jumalistning noni shu, yozaverish kerak.

– Gazetalar qayerda chiqadi?  
– "Gazetny korpus"ga bormaganmisiz?

– Bormaganman-da...

Domlaniing tavsiyasi bilan o'sha kuni mashhur "Gazetny korpus"ni topib bordim. Hayajonim benihoya edi. Chunki "korpus" eshigidan biri-biridan mashhur ijodkorlar kirib-chiqib turardi. Gazeta-jurnallarda faqat rasmini ko'rib yurganim – bu zotlarni hayotda ko'rish juda boshqacha edi. Menga bu zotlar Odam Atoning xos farzandlari bo'lib tuyulardi. O'sha paytlari istalgan shoir-yozuvchining etagida namoz o'qisa bo'ladi, deb o'ylandim. Ammo ayrim etaklar tegib ketsa, qayta tahorat olish vojib bo'lib qolishini hali bilmasdim.

Xullas, o'sha kundan boshlab "Gazetny korpus" bilan o'rtamizda bir rishta bog'landi. Bu dargoh men uchun juda qadrli bir maskanga aylandi. Umuman ishim bo'lmasa ham, bu yerga tez-tez keladigan bo'ldim. Aytmoqchi, "Onamga maktub" e'lon qilinmadi. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi tahririyatida qolib ketdi. Ammo bu "maktub"dan baribir xursand edim. Chunki u meni "Gazetny korpus"ga yetaklab kelgandi.

\*\*\*

Talablik – muhtojlik davri! "Oltin davrim" deganlariga e'tibor bermang, yolg'on! Oltin davrda yashagan talabani ko'rmaganman. Harqalay, mening atrofimda bunaqalar bo'lmagan. Balki bugungi renessanslar davrida

vaziyat o'zgarib ketgandir. Ammo bizning talablik davrimiz – 90-yillarning boshlarida hayot ham, vaziyat ham biroz murakkab edi.

Ana o'sha yo'qchilik kunlarining birida shoir Chorsham Ro'ziyev yaxshi bir maslahat berdi:  
– Birorta gazetaga 0,5 stavkaga ishga kirib olish kerak.

– Olarmikan ishga?  
– Ertaga Sa'dulla akaning oldiga borib ko'ramiz, tushlikdan keyin uyga keling-chi.

Ertasi kuni tushlikdan keyingacha Sa'dulla aka kimligi haqida o'yladim. Kim ekan yo' odam? Yaxshi odammi-kan? Nima derkin? Ana shu savollar hamrohligida yaqinda tanishganim – "Gazetny korpus"ga keldik. Lift oldida to'xtaganimizda, Chorsham aka 4-qavat tugmasini bosdi.

– "Ma'rifat" gazetasi 4-qavatda edi shekilli. Sa'dulla aka ana shu gazetaning bosh muharriri, – dedi. – Savol berib qolsa, imkon qadar javob berishga harakat qiling...  
– Xo'p, – dedim.

Chorsham aka meni "Qabulxonada" qoldirib, o'zi bosh muharrir huzuriga kirib ketdi. Oradan 10–15 daqiqa o'tib, meni ham xonaga taklif qilishdi.

– Shu yigitmi? Yaxshi bolaga o'xshaydi-ku! – dedi salom-alikdan xursand edim. Chunki u meni "Gazetny korpus"ga yetaklab kelgandi.

– Ha, juda yaxshi yigit, endi buyog'iga o'zingiz ustozlik qilasiz,

Sa'dulla aka, – dedi Chorsham aka kulib...

– Yaxshi, hozircha uch oylik sinov muddati bilan korrekturnaga ishga olamiz, eplab ketsa, o'ziga yaxshi, – dedi Sa'dulla aka.

Shunday qilib, meni korrektorlar bo'limiga topshirishdi. Bo'limning ikki nafar xodimi bor ekan. Kattasi Nazira opa degan kayvoni bir ayol, ikkinchisi, Xayrulla Jumayev degan yaxshi bir yigit.

Vyorstka kuni kechki tomon tahririyatda bir odam paydo bo'ldi. Kelganimga ikki-uch kun bo'lsa-da, uni birinchi bor ko'rishim edi.

– Xayrulla, ishlar nima bo'ldi? – dedi xonamizga kirishi bilan. – Bugun o'tgan safariday kechiktirmaysanmi?

– Bo'lyapti ishlar, – dedi Xayrulla sahifadan boshini ko'tarmay.  
– Manga "bo'lyapti"ning o'zi yetmaydi! Agar yana kechiksa, o'zlaringdan ko'rilar! – dedi anavi odam stolni bir mushtlab... So'ng tapur-tupur qilib chiqib ketdi. Eng qizig'i, Xayrulla hech nimani eshitmagan odamdek, bama'ylixotir sahifasini o'qib o'tirardi.

– Bu odam kim? – dedim hayratlanib.

– Mahkam Qo'chqorov! Mas'ul kotib o'rinosari, fe'li sal shunaqaroq, – dedi Xayrulla.

Eng yomoni, mening ishim shu odam bilan bog'liq ekan-da! Ikki haftam o'tmay, Mahkam akani tushlarimda ko'radigan bo'lib qoldim. Aslida aka yomon odam emasdi-yu, anavindan o'ziga "otib" olgan paytlari bizga kun yo'q edi-da. "Otmagan" kuni esa juda kam bo'lardi. Eh-he, to korrekturnadan ketgunimcha Mahkam aka bilan necha marta janjallashganimni eslay olmayman.

Bir safar juda yomon ish bo'ldi. Nima bo'ldi-yu, gazetaning navbatchiligi menga qoldi. Navbatchilik degani shuki, gazeta bosilishdan burun plyonkaga chiqadi. Navbatchi muharrir plyonkani diqqat bilan qarab chiqib, biror joyida xato bo'lsa, plyonkani qaytaradi. Yaxshi bo'lsa, "roziman" deb imzo chekadi. Navbatchining imzosi bilan gazeta bosilishga ketadi.

O'sha kuni vaqt allamahal bo'lganda gazetaning plyonkasi chiqib keldi. Sexdagi navbatchi muharrirlar xonasida xayol surib o'tirgan ekanman:

– Kto dejurit v "Ma'rifat"? – dedi ko'zoynagini peshonasiga taqib olgan qop-qora bir odam.

– Men! – dedim.  
– Podoydi syuda, – dedi.  
Ko'zoynakli odam plyonkalar tekshiriladigan xonada allanimalarni tushuntirdi. Tushunganim shu bo'ldiki, ikkinchi sahifadagi bir sarlavha biroz xira ketib qolibdi. Bu odam mendan: "Bu texnik xato hisoblanadi. Nima qilaylik, qaytarasanni yoki rozimisan?" deb so'rayotgan ekan. Men esa uning hamma gapiga umumiy qilib, "da, da" deb qo'yaman. Koshki, uning gapini oxirigacha tushunayotgan bo'lsam. Mening tashvishim nima bo'lsa ham shu odamdan uzoqlashish... Boya yonimda o'tirgan bir-ikki navbatchining "soglasen" degan joyga imzo chekkanini ko'rib olgandim. He yo'q, be yo'q o'sha joyni topib, imzo chekuvordim. Ko'zoynakli kishi ortimdan baqrayib qarab qoldi. Yelkamdan tog' ag'darilganday bo'lib xonadan chiqdim.

Endi gazeta chiqishini kutish kerak. Plyonka topshirilgandan keyin 15–20 daqiqada gazetaning dastlabki nusxalari chiqadi. Gazeta nusxalariga ham "roziman" deb imzo qo'yish kerak. Ikkinchi imzodan keyin ozod-siz!

Bir payt Mahkam aka kefib qolsa deng! Har doimgidek "shiringina" bo'lib olgan.

– Iye, bugun sen qoldingmi?  
– Ha, bugun men qoldim.

– Endi uka, bu ishlarni ham o'rganish kerak, – dedi Mahkam aka yonimga o'tirarkan. – Mehnat qilsang kam bo'lmaysan! Mana... mening ishim allaqachon tugagan, ammo to gazeta chiqmaguncha baribir uyga bormayman. Sen ham o'z ishingni puxta qilishni o'rgan!

Ichib olganida akadan shunaqa yaxshi gaplar ham chiqib qoldi.

– Plyonkani yaxshilab ko'ringmi, ukajon? – dedi Mahkam aka mehri tovlanib.

– Ha, ko'rdim.  
– Unda men bir qaray-chi, hozir chiqib qolsa kerak.

Mahkam aka sexga kirib ketdi. Oradan biroz o'tib, sex tomondan qandaydir shovqin eshitildi. Quloq solsam, Mahkam akaning ovozi! Yuragim "shuv" etdi. Asta eshikdan mo'raladim. Mahkam akaning qo'li-da g'ijimlangan gazeta... to'rt-besh kishini deyarli "razbor" qilyapti. Yonida turgan boyag ko'zoynakli ham ruschalab bir narsalar deb baqiradi. Gap orasida "dejur" deganini tushunib qoldim-u, gap men haqimdaligini angladim. Demak, bir gap bo'lgan! Mahkam aka eshik tomon o'qday otildi. Qochdim! Nima bo'lsa peshonadan deb, Mahkam akani ham, gazetani ham qismat hukmiga havola qilganicha yotoqxonaga ketib qoldim.

Voqeaning davomini ertasi kuni Xayrulla gapirib berdi. "Brak"

plyonkaga qo'l qo'yvorgan ekanman. Natijada, gazeta "brak" chiqibdi. Bechora Mahkam aka boshqatdan plyonka qildirib, gazetani tongga yaqin chiqarib ketibdi. Yaxshiyam gazeta chiqqan kuni Mahkam aka ishga kelmasdi. Ertasi kungacha Xudo poshsho! Qolaversa, Mahkam akaning ibratli bir xislati bor edi: umuman gina saqlamasdi! Hozir yoqalashib, yarim soatdan keyin "qalaysila", deb kirib kelaverardi.

\*\*\*

"Ma'rifat" gazetasi ishga kelganimga hali uch oy to'lmagan, sinov muddatida edim. Ertalab ishga borsam, Sa'dulla aka yo'lakda kim bilandir gaplashib turgan ekan.

– Ey, yaxshi kelding-da, senga jiddiy bir topshiriq bor, – dedi menga ko'zi tushishi bilan. – Hozir Amir Temur xiyoboniga borasan. Temur bobomizning tug'ilgan kuni munosabati bilan kichkinagina tadbir bo'ladi. Sen kimlar qatnashgani va kimlar so'zga chiqqanini qog'ozga tushirib kelsang, qolganini Qurbonboy akang yozib tashlaydi.

Amir Temur haykali poyida yarim soatlik tadbir bo'ldi. O'zingiz bilganingizday, tarixchilarimiz chiqib 5–10 daqiqadan nutq so'zladilar, shoirimiz chiqib shonli tariximizni madh etdilar. Hammasini qog'ozga muhrladim-da, yo'l-yo'lakay "shuni Qurbonboy aka emas, o'zim yozsam-chi", deb o'yladim. Xonaga kelib, bir soatning nari-berisida tadbir tafsilotini qog'ozga tushirdim-da, kotiba opaga berdim.

– Buni mas'ul kotibga bering, – dedi kotiba.  
– Sa'dulla aka bir o'qisin, o'zim yozdim, – dedim katta ish qilganday.

Kotiba opaning ensasi qotsa-da, xabarchamni olib qoldi. Oradan yarim soatcha vaqt o'tib, kimdir bosh muharrir chaqirayotganini aytib qolsa deng. Zippilab "Qabulxonaga" bordim.

– Buni o'zing yozdingmi? – dedi Sa'dulla aka.  
– Ha, o'zim yozdim.

– Qalaming barga o'xshaydi-ku sen bolang, birorta bo'limga o'tasanmi? – dedi. So'ng javobimni ham kutmay, "men bilan yur" deganicha eshik tomon yo'naldi. Eshigiga "Oliy ta'lim bo'limi" deb yozib qo'yilgan xonaga kirdik.

– Luqmonjon, shu bolani bir-ikki yo shogirdlikka olib ko'ring-chi, yozishni o'rganib ketsa, bo'limingizga o'tkazamiz, – dedi Sa'dulla aka xonaning to'rida o'tirgan odamga.

– Mening bo'limim... kim biladi endi... – dedi u odam biroz chaynalib. Yuz-ko'zida "sen dardisar yetmay turuvding o'zi", degan ma'no balqib turardi.

Shunday qilib, Amir Temur bobomizning muborak tavallud kunlari sharofati bilan "Ma'rifat" gazetasi-ning ijodiy xodimga aylandim. Eng muhimi, Mahkam Qo'chqorovning "mustamlakasi"dan ozod bo'ldim!

Voqeaning davomini ertasi kuni Xayrulla gapirib berdi. "Brak"



## BOTU VA QUDDUS MUHAMMADIYNI

### "Ma'rifat" bilan nima bog'lab turadi?



nish, hunar-texnika bilim yurtlari soni va sifatini oshirishga qaratilgan qator tadbirlarni ishlab chiqdi. Akademik Naim Karimovning yozishicha, shu tariqa, Botu maorif tizimini butunlay isloh etishga kirishdi.

Pedagogika fanlari nomzodi Yo'ldosh Abdulayevning qayd etishicha, Botu O'zbekistonda o'qituvchilar uchun maxsus gazeta nashr qilishning tashabbuskori bo'lgan. 1930-yil 14-mayda Botu raisligida bo'lib o'tgan hay'at yig'ilishida "Qizil O'zbekiston" va "Узбекистанская правда" gazetalariga ilova tarzida o'qituvchilar uchun varaqalar chiqarish masalasi muhokamaga qo'yilgan va bu tashabbus ma'qullangan. Shundan keyin, oradan qariyb bir yil o'tgach, o'qituvchilar uchun "Madaniy inqilob" nomi bilan maxsus gazeta nashr etila boshlandi.

"Ma'rifat" gazetasi o'zining hozirgi nomi va mavqeyiga erishgunga qadar uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tdi. Dastlabki soni 1931-yil 4-iyul shanba kuni "Madaniy inqilob" nomi bilan chiqqan gazeta qariyb 2 ming 400 kun, aniqrog'i, 2 ming 397 kun shu nom bilan faoliyat yuritdi. 1938-yil 25-yanvar seshanba kunidan "O'qituvchilar gazetasi"ga aylandi. Nu-

fuzli nashr ushbu nom ostida 19 ming 518 kun ish olib bordi. O'zining 60 yilligini qarshilagan gazeta 1991-yil 4-iyul payshanba kunidan hozirgi nomda chiqqa boshladi. Joriy yilda uning tashkil etilganiga 90 yil to'lsa, "Ma'rifat" nomini olganiga 30 yil bo'ldi.

Afsuski, gazetaning 90 yillik tarixidagi har bir yil ham uning faoliyat davridan o'r'in olmagan. O'zining o'n yilligini nishonlash arafasida turgan gazeta muayyan muddat ishini to'xtatishga majbur bo'lgan. 1941-yil 22-iyunda fashistlar Germaniyasi urush e'lon qilmasdan sobiq Ittifoqqa hujum boshlagach, mamlakatda yuzaga kelgan vaziyat tufayli boshqa gazetalar qatori "O'qituvchilar gazetasi" ham 1-iyuldan o'z faoliyatini to'xtatdi. Gazeta uchun 1 ming 712 kun davom etgan bu majburiy tanaffus 1946-yil 9-mart kuni navbatdagi son chiqishi bilan yakunlandi.

Quyida "Ma'rifat" gazetasi hali "Madaniy inqilob" nomi bilan faoliyat yuritgan davrga oid ikki qiziq lavha haqida so'z yuritdik. Ularda 90 yillik tarixning bir parchasi o'rin olgan.

#### "MA'RIFAT"NING TASHABBUSKORI

O'tgan asrning yigirmanchi yillarida Botu taxallusi bilan ijod qilgan shoir va jurnalist Mahmud Hodiye'v Xalq maorifi komissari (vaziri) o'rinosari lavozimida ishlagan vaqtda "Ma'rifat" gazetasi-ning tamaloshi qo'ydi. Shuni alohida qayd etish kerakki, u mazkur muassasada uzoq muddat ishlagan bo'lsa-da, qisqa vaqt ichida maorif tizimini birinchi navbatda yuqori malakali pedagoglar bilan ta'minlash, keksa pedagoglardan maqsadli foydala-

#### QUDDUS MUHAMMADIY VA "MA'RIFAT"

O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi Quddus Muhammadiy faoliyatida ham "Ma'rifat" gazetasi muhim rol o'ynagan. Qo'qon xonlari avlodidan bo'lgan Quddus Muhammadiy o'z faoliyatini o'qituvchilikdan boshlaydi. Shohruxbek Umarovning "Xudoyorxon avlodlari tarixi" asarida qayd etilishicha, u maktabda tabiat fanidan dars beradi. Quddus Muhammadiyning so'zlariga ko'ra, ayni o'qituvchilik kasbi uning shoir bo'lishiga sabab bo'lgan. Bu jarayonda "Ma'rifat" gazetasi ham yangi yorqin iste'dodning yuksalishiga bosh qo'shgan.

Maktabda ishlab yurganida yosh shoir darslarni qiziqarli o'tkazish uchun har bir dars mavzusi yuzasidan she'r yozib o'quvchilarga o'qib berar edi. Natijada dars o'quvchilarga anchayin tushunarlari bo'lib, ta'lim sifati oshadi. Bu voqedan xabar topgan maktab direktori Quddus Muhammadiydan maktab o'qituvchilari va o'quvchilari uchun ochiq dars o'tib berishni iltimos qiladi. Ochiq dars qiziqarli o'tadi.

Mazkur darsda foydalangan she'rlarni faoliyat boshlaganiga hali uncha ko'p bo'lmagan "Madaniy inqilob" gazetasi bosib chiqaradi. Ayni shu voqedan keyin Quddus Muhammadiy bolalar she'riyati fidoyisiga aylanadi, bir kun she'r yozmasa uyqus kelmay qoladi. U bolalar psixologiyasining bilimdoni, shoir, tabiatshunos, beqiyos muallim bo'lib nom chiqaradi.

Alisher EGAMBERDIYEV, O'zbekiston Milliy universiteti magistranti



Alisher NAZAR



## Teran tomirlar

O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan Milliy uyg'onish harakatining to'ma'nodagi rahnamolari Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonovlarning Prezident Shavkat Mirziyoyev farmoniga muvofiq "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlanishi xalqimizning istiqloq qahramonlariga nisbatan ulug' ehtiromining yorqin ifodasi bo'ldi.

Jadid maktablari taraqqiyotining yangi davri — bunday maktablar uchun zamon talablariga to'la javob bera oladigan pedagoglar guruhini tarbiyalab yetishtirish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'zida mujassamlashtirgan darsliklar, o'quv qo'llanmalari yaratish, yangi texnik vositalar, ko'rgazmali qurollar ishlab chiqish XX yuzyillikning 10-yillaridan ko'zga tashlana boshladi. Buning uchun endi ushbu maktablarning nazariy asoslarini yaratish, yangi zamonaviy o'qitish usullarini ishlab chiqish va ulardan yosh avlod o'qituvchilarini bahramand qilish kerak edi. Mana shunday buyuk vazifani ado etish zamonasining ulug' mutafakkirlari Abdulla Avloniy hamda Abdurauf Fitratlar zimmasiga tushdi.

etdi. Abdulla Avloniyning badiiy asarlari ifodali o'qish sohasidagi bunday faoliyati tezda Toshkentning usuli qadim va usuli jadid maktablariga ham kirib bordi.

Mana shunday sharoitda yangi ochilayotgan maktablar uchun zamon talablariga javob bera oladigan o'qituvchilarni tarbiyalab yetishtirish, maktablar uchun milliy ruh ufurib turgan darslik va majmualar yaratish uchun dasturulamal bo'ladigan qo'llanma kerak edi. Shuning uchun ham Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari Turkiston jadidlarining rahnamosi Munavvarqori Abdurashidxonov hamda ilg'or pedagoglarning taklifi bilan yaratilgan edi.

To'g'ri, Abdulla Avloniy asarida axloqiy kategoriyalar

muallim dars jarayonida o'quvchilarni fikrlashga, har qanday voqea-hodisaning mohiyatini chuqur idrok qilishga o'rgatadi. Bu o'rinda Abdulla Avloniy ta'lim va tarbiya birligiga alohida ahamiyat beradi. Inson aqliy faoliyatining ifodasi bo'lmish fikr tarbiyasi orqaligina katta sharafiga, barkamollikka erishadi, bu o'rinda o'qituvchining fikrlash doirasining kengligi, bilim saviyasining har jihatdan yuksakligi o'quvchilar tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish aql bilan ish tutishga olib keladi: o'quvchilarni yaxshi xulqlar bilan yomon xulqlarni farqlashga, komil inson uchun zarur bo'lgan yaxshi xulqlarni egallashga, insonni zalolatga yetaklovchi yomon xulqlardan uzoq bo'lishga o'rgatadi.

Mutafakkir Abdulla Avloniy asarining "Yaxshi xulqlar" bobida diyonat, islomiyat, nazofat, qanoat, shijoat, sabr, intizom, vijdon, vatanni sevmoq, haqqoniyat, iffat, hifzi lison, sadoqat kabi insoniy fazilatlar haqida atrofiy fikr yuritadi, o'z qarashlarini dalillash uchun Qur'oni karim oyatlaridan, Hadisi sharif da'vatlaridan namunalar, ulug' mutafakkirlar Afilotun, Arastu, Suqrot, Ibn Sino, Mavlono Rumiy, Shayx Sa'diy, Alisher Navoiy, Bedil fikrlaridan namunalar keltiradi.

# Abdulla Avloniy — milliy uyg'onish davri o'zbek

Abdulla Avloniy — shoir, yozuvchi, dramaturg, publitist. Shu bilan birga, pedagogik faoliyat ham uning hayotida muhim sahifani tashkil etadi. U faoliyatining ilk bosqichidan to' umrining so'nggi damlarigacha o'qituvchilik qildi, pedagogika fanining ham nazariy, ham amaliy masalalari bilan muttasil shug'ullandi, darsliklar yaratdi. Aytish mumkinki, u musulmon sharqi mumtoz pedagogikasining katta bilimdoni, shu bilan birga, XX asr zamonaviy o'zbek pedagogikasining asoschisi, o'zbek tili va adabiyoti o'qitish metodikasi fanining tamal toshini qo'yg'an mutafakkirdir. U faoliyati davomida ko'plab zamonaviy pedagoglarni, metodist olimlarni tarbiyalab yetishtirdi.

Ma'lumki, o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatish adabiy o'qish darslarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ko'rgazmali vosita vazifasini bajaruvchi ifodali o'qish natijasida asar voqealari, g'oyasi o'quvchilar ko'z o'ngida namoyon bo'ladi. Abdulla Avloniy savod chiqarishga qanchalik katta e'tibor bergan bo'lsa, asarni tushunib o'qish, ifodali o'qish, badiiy asarni his qilishga shunchalik ko'p diqqat qiladi. U ifodali o'qishning bir necha turini ishlab chiqdi. O'quvchilarning xor bo'lib o'qishlarini o'qituvchi A.Avloniy dirijyor kabi (chunki u dirijyorlik san'atidan xabardor edi — U.D.) boshqarib borgan. Hur fikrlar bilan ma'rifat maydoniga chiqqan mutafakkir o'z darslarida ifodali o'qishning ibtidoiy shakllari bilangina cheklanib qolmadi, shu bilan birga, uning yangi, zamonaviy shakllarini ishlab chiqdi.

1910-yillarda Riga shahridagi "Grammofon" jamiyati vakillari O'rtasiy Osiyo shaharlariga kelib, o'zbek, qozoq, tojik, turkman xalqlari orasidagi mashhur hofizlarning kuy va qo'shiqlarini, dostonlarini, xalq maqomlarini yozib oladilar. O'z zamonasining yirik ma'rifatparvar shoiri, pedagogi Abdulla Avloniy o'qitishda birinchilardan bo'lib texnik vositalardan foydalandi. U "Maktabga targ'ib" she'rini bastakor sifatida alohida diqqat bilan kuyga soladi va o'quvchilarni xor bo'lib o'qishga o'rgatadi. Bu o'rinda u asarni timsolarga bo'lib o'qitishga ham alohida e'tibor berdi. So'ngra 1911-yili bolalar xorini gramplastinkaga yozdirdi. Unda she'rning 4 misrasi ovozi baland ikki o'quvchi tomonidan o'qiladi:

*Oqil qoshida, millat boshida  
Nurlar sochub, yashnab turgan maktab emasmi?  
Ilm-u humarlar, gullar, chamanlar  
Yoshlar uchun ochub turgan maktab emasmi?*

Ko'p bolalar musiqa sadolari ostida xor bo'lib o'qiydilar:

*O'qusun yoshlarimiz, bid'atni tashlarmiz,  
Ketsun g'afat! Kelsun himmat! Yashasun millat!*

Shu tarzda she'rning boshqa qismlari ham kuyga solib o'qiladi. E'tiborli tomoni shundaki, ushbu "Maktabga targ'ib" Avloniy o'quvchilari xori yozilgan noyob plastinka O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Zokirjon Sultonov fonotekasida saqlanadi.

Shuni ham unutmaslik kerakki, Abdulla Avloniy birinchi o'zbek teatri tashkilotchilaridan edi. Teatr uchun bir necha drama yaratdi, ularni rejissyor sifatida sahnalashtirdi. Uning bu faoliyati o'z maktabida xor, ifodali o'qish, musiqa va ashula darslarini tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb

haqida fikr yuritar ekan, birinchi o'rinda o'quvchilarni ko'zda tutadi, ammo ularni bolalar tarbiyasiga singdirish vazifasini muallimlar zimmasiga yuklaydi. Demak, asar o'quvchilardan ko'ra ko'proq muallimlar uchun yaratilganligiga ishonch hosil qilish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, Abdulla Avloniyning muallimlarga qarata aytgan quyidagi so'zlari "Turkiy guliston yoxud axloq" asarining maqsadini to'la ifodalaydi: "Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'z zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatiga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratlik bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziyati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'lidir. Ta'lim ilmi tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi biridan ayirmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabi-dur".

Bu so'zlar o'quvchilarga emas, kattalarga, ayniqsa, bo'lg'usi o'qituvchilarga qaratilganligini anglash qiyin emas. Chunki ular kelgusida bularni bolalar — o'quvchilar ongiga singdirishlari kerak. Shu tariqa, "Turkiy guliston..." asari buyuk mutafakkir Shayx Muslihidin Sa'diyning "Guliston" asariga nazira sifatida yaratilgan.

Barkamol insonni voyaga yetkazish, ularni yaxshilikka chorlash, yomonlikdan qaytarish tarbiya orqali amalga oshiriladi. Avloniyning pedagogika haqidagi ta'rifi ham hozirgi zamon ta'rifi ancha mos keladi: "Tarbiya — "Pedagogiya", ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur".

Shu tariqa "Turkiy guliston yoxud axloq" asari ko'plab pedagoglar tavsiya va takliflariga binoan yaratildi. Asarga bo'lgan ehtiyojning kattaligi tufayli o'sha yillariyoz 2 marta — 1913 va 1917-yillarda bosmadan chiqdi. Bu asar, asosan, inson axloqi, ya'ni yaxshi va yomon xulqlar haqida fikr yuritadi. Asarning boshidayoq zamonodoshlar e'tibori inson hayotida tarbiyaning buyuk ahamiyatiga jalb etilgan. Inson hech qachon yomon bo'lib tug'ilmaydi yoki yaxshi odamdangina yaxshi farzand yoki yomon odamdangina yomon odam tug'ilmaydi, farzandning barkamol inson bo'lib yetishuviga tarbiyaning ahamiyati buyukligi ta'kidlanadi.

Farzand tarbiyasi shaxsiy masala emas, u jamiyat, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan buyuk ijtimoiy ishdir. U shu darajada buyuk ishki, Vatan istiqboli ham, millat taqdiri ham tarbiya bilan bog'liq. Abdulla Avloniy so'zlari bilan aytganda, "Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir. Rasuli akram nabiyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: "Insonlarning karami dinidadir, muruvvati aqlindadir, hasbi axloqindadir", demishlar".

Abdulla Avloniy inson tarbiyasini bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan uch yo'nalishga bo'ladi: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi va axloq tarbiyasi. Xalqimiz "sog' tanda — sog' aql" deganidek, inson uchun avvalo badan (tan) salomat bo'lmog'i zarur, badan sog' bo'lgandagina inson uchun zarur bo'lgan boshqa amallarni singdirish mumkin. Buning uchun inson bodanini ichtiklik, ko'knor, nasha kabi bevaqt zalolatga, tubanlikka eltuvchi, salomatlikka zarar, "ba'zisi harom, ba'zisi makruh" narsalardan asrashi kerak. Bu esa, A.Avloniy yozishicha, fikr tarbiyasi uchun zamin yaratadi. Fikr tarbiyasi farzandni komil inson darajasiga ko'tarishda muhim omil hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirishda asosiy mas'uliyat o'qituvchi zimmasiga tushadi. Chunki

Jadidchilik harakati namoyandalari ham Yevropa ma'rifatparvarlari kabi ilm-ma'rifatni, zamonaviy taraqqiyotni bayroq qilib ko'tardilar, taraqqiyotga to'g'anoq bo'layotgan, Qur'oni karim sura va oyatlarini, Hadisi sharif da'vatlarini o'z manfaatlari yo'lida buzib talqin qiluvchi mutaassib ulamolarga, qadimchilarga qarshi keskin kurash olib bordilar. Shuni ham unutmaslik kerakki, o'zbek jadid ma'rifatparvarlarini Yevropa ma'rifatparvarlaridan ajratib turadigan asosiy jihat shundaki, ularning faoliyati zaminida millatni Rusiya mustamlakasi zulmidan ozod etish, istiqloq, mustaqillik g'oyasi yetakchilik qilar, jadid mutafakkirlari olib borgan faoliyat oq va qizil mustamlakachilarga birdek ma'qul emas edi. Shuning uchun ham ular bir umr ta'qib, tazyiq ostida faoliyat ko'rsatdi va oxir oqibatda qirib tashlandilar.

Avloniy pedagogik qarashlarida aql va ilmning yuksak darajada ulug'lanishi bevosita insonni ulug'lash bilan uzviy bog'lanadi. Chunki O'lohol insonni barcha mavjudotlardan, maxluqotlardan ulug' qilib yaratdi. Unga ikki dunyo saodati(saodati dorayn)ga erishishdek buyuk maqsad uchun Aql berdi. Inson shu Aql yordamida ilm-ma'rifatni, taraqqiyotni egallaydi, dunyoni boshqaradi. Mana, Abdulla Avloniyning Aqlga bergan ta'rifi: "Aql insonlarning piri komili, murshidi yagonasidir. Janobi Haq insonni hayvondan so'z va aql ila ayirmishdur. Rasuli akram nabiyi muhtaram afandimiz: "Ey insonlar! Aqlingizga tavoze' qilingiz. Siz janobi Haq buyurgan va qaytargan narsalarni aqlingiz ila bilursiz", — demishlar".

A.Avloniy inson salomatligi to'g'risida fikr yuritar ekan, uning asosiy omillaridan biri — tozalik haqida alohida bob ajratadi. "Nazofat" deb nomlanuvchi bobda odamni xalq o'rtaida, hatto O'lohol qoshida sevulmi qiladigan vosita pokizalilik, nazofatdir. Inson nafaqat o'z bodanini, kiyim-kechagini, shu bilan birga, yashab turgan joyini, muhitini, shahrini, Vatani pokiiza saqlashi kerak. Atrof-muhitning nopokligi turli-tuman kasalliklarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Ifloslik, nopoklik balosidan poklik, nazofat davosi bilan qutulish kerakligini alohida ta'kidlaydi.

A.Avloniy shu tariqa sabr, himl, miqyosi nafs, intizom, vijdon kabi insoniy fazilatlar haqida chuqur ma'noli fikrlar bayon qiladi. Ammo Vatan haqidagi qarashlari yanada muhimroq, yanada e'tiborliroq. Vatan — Ona kabi yagona, Ona kabi muqaddas. Bu mavzu necha-necha asrlar davomida adabiyot va san'at ahlari e'tiborini o'ziga maftun etib kelgan. E'tibor bering, 1960-yillarda Erkin Vahidovning "O'zbekim", Abdulla Oripovning "O'zbekiston" qasidalari, "Men nechun sevaman O'zbekistonni?" she'ri o'zbek xalqi orasida shunchalar aks sado berdiki, hatto sho'ro mafkurachilarini talvasaga solib qo'ydi. O'zbekiston bo'ylab birorta to'y-u tomosha yo'q ediki, bu she'rlar to'lib-toshib yoddan o'qilmasa yoki qo'shiq qilib aytilmasa. Nega millat his-tuyg'ularini shunchalar jumbushga soldi bu she'rlar?! Ongimizga 130 yildan ortiq vaqt davomida o'zga millat, o'zga vatan, o'zga til "buyuk"ligini singdirib keldilar, xalqimiz esa o'z millati va o'z ona-Vatani, o'z ona tili haqida iliq bir so'zga intiq edi. Vatan va millat tushunchasi jism-u jondir. Shuning uchun ham Abdulla Oripov yozadi:

*Xo'sh, nechun sevaman O'zbekistonni,  
Sababini aytgin desalar menga,  
Shoirona go'zal so'zlardan oldin  
Men ta'zim qilaman ona xalqimga.*

Sho'rolar hukumati o'sha vaqtlarda o'zbek farzandlari ongiga, shuuriga singdirmoqchi bo'lgan Vatan, Millat, til haqidagi "sovet vatani", "sovet xalqi", "buyuk rus tili" kabi soxta tushunchalarni chilparchin qilib tashladi bu she'rlar.

Sho'rolar davrida oliy o'quv yurtlari va o'rta maktablar uchun tuzilgan bir qancha adabiyot darslik va majmualari muallifi, O'zbekiston Xalq o'qituvchisi, Respublikada xizmat ko'rsatgan fan arbobi rahmatli otam Subutoy Dolimov bir kuni 25 yil davomida qayta-qayta ishlanib nashr etilgan o'zi tuzgan 5-sinf "Vatan adabiyoti" darslik-majmuasini ko'rsatib: "Shu ham "Vatan adabiyoti" majmuasi bo'ldimi? 65-70 foizi rus adabiyotidan qilingan tarjimalar! Qani endi, o'zbek yozuvchi va shoirlarning milliy ruh ufurib turgan eng go'zal nazmiy va nasriy asarlaridan bolalarimiz uchun majmualar tuzsang!", deb orzu qilgan edi.

XIX asrning 90-yillarida rus-tuzem maktablarida o'qiydigan mahalliy millat bolalari uchun S.Gramenisinyning uch kitobdan iborat "Книга для чтения" ("O'qish kitobi") asari darslik sifatida nashrdan chiqarildi. N.Ilminskiyning ruslashtirishga qaratilgan qarashlari zaminida yaratilgan ushbu darslikda Rusiyani, rus xalqini ulug'lovchi, ko'klar-

Muallif tomonidan ushbu bobning yaratilishi kuchli hayotiy ehtiyoj, ma'naviy zarurat samarasidir. Jadidlar milliy ta'limning zamini sifatida ona tili o'qitish masalasiga e'tiborni kuchaytirdilar, chunki milliy ruh, milliy ma'naviyatni "sut bilan kelgan..." deganlaridek, faqat ona tili orqaligina singdirish mumkin. Bu — jadid mutafakkirlari pedagogik qarashlarining tub mag'zini tashkil qiladi. Mahalliy millat bolalari uchun maxsus o'chilgan davlat tasarrufidagi rus-tuzem maktablarida ona tili, uning adabiyoti, dini va tarixini o'qitish masalasiga maxsus e'tibor berilmadi. O'z tili, dini, madaniyati, tarixidan xabarsiz kichik ma'murlar toifasini tarbiyalab yetishtirish ruslashtirish siyosatining birinchi va hal qiluvchi bosqichi edi. Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitratlar rahnamoligida ochilgan va xalq o'rtasida katta e'tibor qozongan jadid maktablari mohiyat e'tiboriga ko'ra rus-tuzem maktablariga qarshi qaratilgan edi. Shuning uchun ham A.Avloniyning ona tiliga nisbatan buyuk muhabbat bilan aytgan so'zlari to'g'ridan-to'g'ri o'sib kelayotgan yosh (shu bilan birga, hozirgi) avlodlarga qaratilgan edi:

## pedagogikasinig asoschisi

*Ey ona til, aziz qadrdonim,  
Ilifoti ruhim, rahmonim.  
Tug'dig'im kundan aylading ulfat,  
O'lgunimcha ayilma, ey jonim.  
Menga ilm-u adab san o'rgatding,  
Chin adib, muallim shonim.  
Millating ruhini ko'targuchisan,  
Ey muqaddas karamli sultonim.*

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish hamma vaqt ta'lim-tarbiya tizimining birlamchi va asosiy vazifasi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Abdulla Avloniy atloqi metodist olim sifatida mazkur asarida o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish masalasiga, voizlik (notiqlik) san'atini egallashga alohida e'tibor qaratadi. Muallif fikricha, har bir o'quvchi ona tilida o'z fikrini aniq, ta'sirchan, shu bilan birga, chiroyli bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishi, so'zning nozik tovlanishlarini his qilishi kerak. Buning uchun esa o'quvchi ona tilining nozik, go'zal ifodalarni, nafosatini puxta egallagan bo'lishi shart. Bu so'zlar to'g'ridan-to'g'ri yozma nutq o'stirish masalasiga ham bevosita taalluqlidir: "Umumiy milliy tilni saqlamak ila barobar xususiy og'iz orasidagi tilni (og'zaki nutqni — U.D.) ham saqlamak lozimdur. Chunki so'z insonning daraja va kamolini ko'rsatadurgoron torozusidir. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qiymatini so'zlagan so'zidan bilurlar".

"Turkiy guliston yoxud axloq" asarining "Yomon xulqlar" qismi 18 bobdan iborat. Muallif insonning bunday xulqlarini "saodati abadiyadan mahrum qiladigan, janobi Haq qoshida va xalq nazarida mazmum, hayoti jovidonimiz uchun masmum bo'lgan axloq zamimalar..." deb ataydi. Asar muallifi kishilarning ham ijobiy, ham salbiy xulqlarini bayon qilib, kitobxonlar mulohazasiga havola qiladi, ularni mustaqil fikrlashga da'vat etadi. U "Bu sanalgan yomon xulqlarning fanoliqlarini, yuqorida sanalgan yaxshi xulqlarning go'zalligini insof muvozanasi ila o'lehab, vijdon muhokamasii ila taqbiqlab, yaxshilarni tinglab amal qil-mak, yomonlarni onglab, hazar qilmak lozimdur", deydi.

Avloniy asarining keyingi bobida g'azabning ikki xil xususiyatini bayon qiladi. Biri — dushmandan o'zini, millatini, Vatani mudofaa qilishda insonning g'azabi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bu o'rinda g'azab dushmanga qarshi kurashda unga katta kuch-qudrat bag'ishlaydi. Ikkinchisi — birovni jabr-zulm yo'li bilan ishlatish, begunoh odamlarga achchiq va sovuq mulomalasi bilan dahshat solishdan iborat bo'lgan salbiy xususiyatdir. Hilm — yumshoq tabiatlilik bilan g'azabning oldini olish mumkin. Avloniy bu haqda Imom Shofe'iy hazratlarining so'zlarini keltiradi: "Qilich va nayza ila hosil bo'lmagan ko'b ish-lar yumshoqlik va muloyimlik ila hosil bo'lar. G'azabning zarari egasiga qaytar", — demishlar".

Mutafakkir asarining "Yomon xulqlar" qismida yana bir nihoyatda muhim masalaga e'tiborni qaratadi. Bu "Jaholat" va "Aqsoni jaholat" ("Jaholat qismlari") boblaridir. Jaholat nodonlikdan, ilmsizlikdan hosil bo'ladi. Insoniyatning eng g'addor dushmani jaholatdir. Asar muallifi jaholatni ikki qismga ajratadi: biri — "jahli basit" (oddiy jaholat), ikkin-chisi — "jahli murakkab". "Jahli basit" kasaliga mubtalo bo'lganlar biror narsani bilmaydilar va bilmasliklarini e'ti-rof etadilar. Bularning davosi nisbatan oson, ularni o'qitish, o'rgatish, bilim berish bilan bu marazdan forig' qilish mum-

kin. "Jahli murakkab" kasaliga duchor bo'lganlar bilmagan narsalarini bilaman deb da'vo qiladilar. Ularni tuzatish ancha murakkab ish. Jahli murakkab qanchadan-qancha ilm-fan, taraqqiyot fidoyilarini ta'qib-tazyiqqa, vatanjudolikka duchor etdi. Ulug'bekdek buyuk alлома, adolatlari podshoh uning qurboni bo'ldi. "Jahli murakkab" namoyandalari millatni asriy qoloqlikda, jaholatda saqlashda mustamlakachilar uchun qurol vazifasini bajardilar. Hatto "jahli murakkab" haqida Munavvarqori Abdurashidxonov maxsus "Bizning jaholat — jahli murakkab" nomli maqola ham yozdi. Unda muallif jaholatparast ulamolarni, ilm-ma'rifatdan yiroq eski maktab va madrasalarni, ularning homiy-larini qattiq tanqid qildi. Ularning johilligi tufayli Vatanimiz to'rt yuz yil davomida jahon taraqqiyotidan butkul uzilib qoldi.

Abdulla Avloniy har bir axloqiy kategoriyani tahlil va talqin qilar ekan, bevosita o'z davri muammolari bilan bog'laydi, shuning uchun ham asarda davr nafasi ufurib turadi. Mustamlaka Turkistonning fojiali ahvoli, erksizligi, chor hukumatining o'lkada olib borayotgan dahshatli iqtisodiy siyosati asar qatlariga mohirona singdirib yuborilgan: "Ovrupoliklar o'zimizdan olgan besh tiyinlik paxtamizni keltirib, o'zimizga yigirma besh tiyinga soturlar. Ammo biz turkistonliklar dumba sotub, chandir chaynaymiz, qaymoq berib, sut oshaymiz, non o'rniga kesak tishlaymiz. So'zning qisqasi hozirgi zamonga muvofiq kishi bo'lmak uchun ilm va ma'rifat ila barobar iqtisod, insof, tuganmas say', bit-mas g'ayrat lozimdur".

Asarda muallifning o'zbekcha so'zlarni nihoyatda nafis his qilishi ko'zga yaqqol tashlanadi. A.Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarini zamonadoshlari — muallimlarning taklif va istaklarini nazarda tutgan holda, garchi og'ir bo'lsa-da, Shayx Sa'diy uslubida yozmoqni muqaddas deb bildi. Sa'diyning "Guliston" asariga chuqur-roq razm solsak, hayotdagi salbiy voqea-hodisalarni, yaramas xulqi kishilarni fosh etishda g'azab-nafarat, kuchli hajv bilan ifodalashdan ko'ra yengil kulgi, mutoyiba, kinoyadan ustalik bilan foydalanilganing g'uhovi bo'lamiz. Buni asar muallifi ulug' mutafakkirning o'zi ham alohida ta'kid-laydi: "...Lekin sohibi dillarning ravshan va musaffo vr'yi oroyishlarig'a maxfiy va po'shida qolmasinkim, shofiy mav'izalarning durlardan iborat rishtasig'a chekmish-dururman. Pand va nasihatning talx va achchiq dorusini zarofat va latofat shahdi bila og'ushta qilmishdururman, tokim qabul davlatidin mahrum va noumid bo'lub qol-mag'ay. Masnaviy:

*Biz nasihat bajoy kelturduk,  
Pandin oxirig'a yetkurduk.  
Har kishi mayl etib quloq solmas,  
Bizdin elga poyom bo'lg'oyu bas".*

Abdulla Avloniy ham Shayx Muslihiiddin Sa'diy kabi har bir bob oxirida o'z axloqiy qarashlarini xulosalovchi qissadan hissa sifatida 4-5 bayt she'r keltiradi, keskin fosh etuvchi achchiq tanqid, hajv Avloniy asarida ham deyarli ko'zga tashlanmaydi. Bu bilan u, birinchi navbatda, norasi-da bolalarni — o'quvchilarni ruhini, ulardagi yumshoqta-biatlilikni, poklikni nazarda tutgan bo'lsa, ajab emas. Aslini olganda, buyuk Sa'diyning "Guliston" asari ham tilning nihoyatda samimiyat, beozorligi tufayli ko'plab ijodkor-larni o'ziga mafun etib keldi, necha-necha yuzilliklar da-vomida maktab va madrasa o'quvchi hamda talabalarning asosiy darsligi vazifasini ado etib keldi.

Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarini butun Turkiston ziyolilari katta mamuniyat va qoniqlik bilan kutib oldilar, uning targ'ib-tashvishiga alohida e'tibor berdilar. Ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan bu noyob, mukammal asarning har bir adabiyot va san'at ahli, muallimlar, umuman, o'zbek xonadoniga kirib borishini dil-dildan orzu qildilar: "Turkiston viloyatining gazetii", "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona" gazetalarida ushbu asarni ta'rif-tavfiq etuvchi turkum maqolalar e'lon qilindi. Bunga "Turkistonga zo'r shodlig" sarlavhali maqola-taqriz dalil bo'la oladi: "Ko'pdan beri kutin Turkiston uchun eng kerakli "Turkiy guliston yoxud axloq" ismli axloq ki-tobi ochig tilda, Turkiston shevasida Shayx Sa'diy usulida Abdulla Avloniy tarafidan yozilub, toshbosmada bosilub, 132 betdan iborat muhim asar maydonga chiqdi. Har bir adabiyot oshiq-lariga, xususan, muallim afandilarga biror nusxani tavsiya qilurmiz". ("Sadoyi" Turkiston" gazetasi, 1914-yil, 24-son).

Darhaqiqat, A.Avloniy ushbu "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida zamonaviy pedagogikaning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqdi hamda asar bo'lg'usi yosh muallimlarni tarbiyalashda, milliy ruh ufurib turgan darslik va majmualar yaratishda dasturlamal vazifasini bajardi.

Ulug'bek DOLIMOV,  
pedagogika fanlari doktori

ga ko'tarib maqto'vchi, Rusiyani buyuk vatan sifatida ta'rif-tavfiq etuvchi o'nlab nazmiy va nasriy matnlari berilgan edi. Bu tasodifiy hol emas, aksincha, uzoqni ko'zlab amalga oshirilgan tadbir edi. Darslikning shovinistik maqsadini jadid pedagoglari tushunib yetgan va millat farzand-larini vatanparvarlik, millatparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratgan edilar. Bu hol ular yaratgan har bir darslikda, har bir ilmiy va badiiy asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston..." asarida "Vatanni suymak" degan bob bor. Unda yosh qalblarda o'z ona Vatani Turkistonga nisbatan muhab-bat tuyg'ularini mavjga keltiruvchi shunday misralar bor:

*Vatan, Vatan deya jonim tanimdan o'lsa vatan,  
Banga na g'am, qolur avlodima o'y-u-raton.  
G'ubora do'nsa g'amim yo'q vujud zeri vahm,  
Choraki, o'z Vatanim xokidur go'ru kafanim.  
Tug'ub o'san yerim ushbu Vatan vujudim xok,  
O'lursa aslina roje' bo' hurmi man g'amnok.*

Ushbu asar yozilgan davri — Vatanimiz mustamlaka iskanjasiida fojey ahvolga tushgan, kelgindilar oyog'i osti-da toptalgan davrni to'la his qilib, "Vatanni suymak" bobi o'qilsa, Vatan istiqloli, ozodligi uchun inson, hatto jonini ham fido qilishi kerak, degan g'oya asar qatlariga singdirib yuborilganligini sezish qiyin emas. Vatan tuprog'i muqad-das: unda ajdodlarimizning xoklari, kelajak nasllarimizning haqlari bor. Shuning uchun ham Vatanni oddiygina sevim mumkin emas, uning istiqbol uchun kuyunish, kurashish, kelguvsi avlodlarga to'la-to'kis, ozod, farovon holda top-shirish hissi ham mavjud. Abdulla Avloniy ona-Vatanga mana shunday yoniq qalb bilan munosabatda bo'ladi. U kelgusida yaratilajak darslik va majmualarda millatparvar-lik, vatanparvarlik ruhi barq urib turgan badiiy matnlarni ko'proq berish kerakligini nazarda tutgan edi.

"Turkiy guliston yoxud axloq" asarida bir kichik bob "Hifzi lison" ("Til muhofazasi") deb nomlanadi. Ham-ma vaqt, hamma ijtimoiy-siyosiy formatsiyada millatning mavjudligini, e'tiborini belgilovchi ko'zgu — uning tili va adabiyotidir. Ulug' san'atkor shoir Abdulhamid Cho'lpon "Adabiyot o'lsa, millat o'lur" deb yozgan edi "Adabi-yot nador?" maqolasida. Har bir inson, birinchi navbat-da, o'z ona tilini mukammal bilishi, tilining ravnaqi, sof-ligi uchun kurashishi, jon kuydirishi kerak. Asar muallifi o'rinsiz o'zga til so'zlarini qo'shib, aralash-quralash ishla-tishga keskin qarshi chiqadi va buni madaniyatsizlikning yaqqol ko'rinishi deb biladi. Avloniyning ona tiliga bunday qarashlari hozirgi kunimizda — mustaqillik davrida ham har bir gapiga, albatta, 2-3 o'risha so'zni qo'shib gapiruv-chi yoshlarimizga yoki o'ris tili durustroq bilmasa-da, radio va televideniye orqali ruscha intervyu beruvchi, o'risha gapirishni madaniyat belgisi deb biluvchi, hat-to ba'zi bir nodon kattalarga ham to'la taalluqlidir: "Har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadurgoron oyinayi hayoti — til va adabiyotidir; — deb yozadi Avloniy. — Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur. Hayhot! Biz turkistonliklar milliy tilni saqlamak bir tarafdin tursin, kundam-kun unutmak va yo'qotmakdudur. Tilim-izning yarmi arabiy, forsiy o'lgani kamlik qilib, bir cheti-ga rus tilini ham yopishdurmakdamiz... Zig'ir yog'i solib, moshkchichiri qilib aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadur".

# "GAZETALAR O'LMAYDI,

## uni o'qimaydiganlar fikri o'zgardi"

Matbuotning keng ko'lamda rivojlanishiga yo'l ochgan omillardan biri XVI asr o'rtalarida germaniyalik Iogan Gutenberg tomonidan ilk bosma dastgohning ixtiro qilingani edi. To'g'ri, bundan oldin ham matbuot bo'lgan. Masalan, eramizdan avvalgi I asrda Rim imperatori Yuliy Sezar davrida ganchdan maxsus yasalgan taxtachalar matbuotning birinchi ko'rinishi edi.

Xitoyda XIII asrda taxtaga o'yib yozilgan gazetalar chiqa boshladi. Keyinchalik Yaponiyada ham shunday nashrlar paydo bo'ldi. O'sha davr matbuoti yangilik yetkazish bilan birga, hukmronlar manfaati, ijtimoiy-siyosiy g'oyalarni ham aks ettirardi. Bosma dastgoh ishga tushirilishi bilan oldingi davr, hukmronlar matbuotiga hech qanday ehtiyoj qolmadi. Bosma dastgohning xususiyatlari tez, aniq, ma'lum bir qolipda, eng asosiysi, avvalgi siyosatlarini bo'g'ib bo'lsa-da, erkinlikka yo'l ochdi.

Birin-ketin jurnalistika katta davlatlarda, xususan Germaniya, Angliya, Fransiya, Rossiya-da keng rivojlana boshladi. Matbuot foyda keltiruvchi sohaga, ya'ni biznesga aylandi. Turkistonda "Erkinlik jurnalistikasi"ga XX asr boshida ma'rifatparvar ziyoli jadidlarimiz tomonidan asos solingan. Biroq "Taraqqiy", "Hurriyat", "Xurshid" gazetalarining umri qisqa bo'ldi.



Hozirga kelib yurtimizda 300 dan ortiq gazeta faoliyat yuritmoqda. So'nggi yillarda jurnalistikaning boshqa sohalarini rivojlanganidan bosma ommaviy axborot vositalariga talab, taklif ham anchagina susaydi. Shu bois mushtariylar gazeta mutolaasidan biroz bo'lsa-da chekinishdi, majburiy obuna asta-sekin to'xtatildi. Oqibatda bu o'zgarishlar jamiyatda boshqacha talqin etilib, "gazetalar o'ldi" degan xulosaga kelib qolishdi. Aslida, hali gazetalar kuchli ekanligi, teleradio bo'la-

dimi yo televideniye, boshqa OAVning istalgan sohasini olaylik, ularga kadr tayyorlab beradigan gazetalar ijodkor o'quvchilar qalamini charxlaydigan dargohligi bilan ham o'z mavqeyini yo'qotgani yo'q.

Fikrlarimga dalil sifatida "Ma'rifat" gazetasi bosh muharriri – Husan Nishonovning quyidagi so'zlarini keltirib o'tmoqchiman: "Gazetalar o'lmaydi, faqatgina gazeta o'qimaydiganlarning fikri biroz o'zgardi, xolos". Gazetalar jurnalistikaning tayanchi. Uni "o'ldirishga" hech kimning haqqi yo'q, aksincha, bizdek haqiqiy mushtariylar bor ekan, gazetalar hali ko'p asrlar mobaynida xizmat ko'rsatishda davom etadi.

Sardorbek QUDRATOV,  
O'zDJTU talabasi



Donolardan biri: "Ildizimzning tiriklik davrida chuqur ketishi, yoshlikda qanday gullashimiz bilan bog'liq hodisa", degan.

## Iste'dod jallodlariga jazo bormi?

Ildizim qayerdan ozuqa oladi, qayerda gullaymiz? Hech shubhasiz, oila va maktab ildiz otishimizga quvvat, gullashimizga turtki bo'ladi-da. Ammo mening ildizim tiriklik davrida chuqur ildiz otganmikan? Yoshlik davrlarini eslasam, savol qarshisida o'ylanib qolaman.

Chunki ma'rifatning suviga chanqoq, ma'naviyatning nuriga tashna, ilm ozuqalariga ilhaq vujudimga adolatsizlikdan bulg'angan suv kirgan. Saviyasizlikdan ruhimda majruhlik, tanamda xastalik qolgan. Dardimni doston qilib o'tirmayman. Lekin meni bir-ikita savol qiynaydi: nega o'qituvchi-ustoz borasida biryoqlama yondashamiz?

Haqiqatan ham, O'zbekistondagi hamma ustozlar zahmatkash, kuyinchak, mehribon, zukko va zakiymi? Agar shunday bo'lsa, bir vaqtlar mening, hozir esa ukamning boshini yorgan mushtumzo'r o'qituvchilar rahmdil va mehribon ekan-da. Eti sizniki, suyagi bizniki, degan aqida hali ham hukmron ekan-da. Demak, yangi O'zbekistonni zabardast va pahlavon Alpomish-u Barchinoylar emas, eti yeyilib shaqirlagan suyaklar qurar ekan-da. Etxo'r "allomalar" esa e'zoz va ikromda qadrlanarkan-da, shundaymi? Maktablardagi iste'dod yo'lto'sarlarining adolatsizliklariga guvoh bo'lib, mening bundan boshqa xulosa chiqarishim mumkin emas.

Bir kuni ukam(7-sinf) maktabdan yig'lab keldi. O'yinqaroqlik qilgani uchun hammaning oldida ustozni mulzam qilib uribdi. Ikki shapaloq, bir tepkiga hech kim o'lib qolmaydi. Ammo maktabimda yegan shapaloq, kamsitishlar, adolatsizliklar-u yuzsizliklardan yuragimda yig'ilgan alam har eslaganda vujudimni o'rtaydi. Qanday qabul qilish sizga havola-yu, lekin men haqiqatni gapiryapman. Yoshligimda ko'p ustozlarim arzimagan xatolarim uchun ham do'pposlardi. Sinfdoshlarim oldida izza qilardi. Menga eng alam qilgani, ustozlarimning "odob tayog'i" kecha mening boshimda singan bo'lsa, bugun ukalarimning boshida ham xuddi shunday tayoq sinyapti. Xo'p, biz ayrim "mehribon" ustozlarimiz aytganidek "talabga javob bermaydigan bebosh" ekanmiz, unda nega shuni ota-onamizga bildirishmagan? Umuman, o'qituvchining o'quvchini urishga haqqi bormi?

Maktab inson hayotida asosiy o'rin tutadi, dunyoqarashlar shu maskanda shakllanadi. Men ayni paytda hayotda duch kelayotgan muammolar qarshisida o'ng'aysiz, oddiy hayotiy jumboqlar oldida karaxt bo'lib qolishimda, jamoat oldida shaxsiy fikrlarimni dadil aytolmasligimda ayrim ustozlarimning ulushi yo'qmi? Albatta, bor. Buni inkor etish mumkinmi? Birniki – mingga, mingniki – tumanga. Darhaqiqat, qilg'i qilni yorar, o'ta qo'pol, tarbiya borasida g'ayrioddiy metodlar qo'llaydigan ustozimning qilmishi mengagina emas, minglarga tatidi. Maktabni ikki yil avval bitirganman. Maktabdan o'rganmagan narsalarimni 1-2 yil ichida repetitorda o'rganishga tirisharkanman, maqsadlarim ro'yobiga asos bo'la oladigan bilim va ko'nikmalarni ko'plar qatori talabim darajasida o'zlashtira olmayapman. Hattoki, o'zim tushunib yetmagan psixologik muammolar qurshovida qolganimda, holatimni psixologlar depressiya, nevroz, fobiya deb baholashdi. Men buni ustozlarimning "o'z-gacha" ta'lim-tarbiyasining oqibati deyishga haqqim yo'qmi?

Nega bu kabi o'qituvchilarni "fan bog'ining bog'boni", "benazir zot" deymiz? Biz ularni millat ildizlarini qurituvchi iste'dod jallodlari, deb aytak xato bo'ladi? Nima sababdan haqiqiy madaniyatsiz o'qituvchilarga chora ko'rilmaydi? Nega gazeta-jurnallar bu kabi illatlar haqida bong urmaydi?

Diilshodbek RAHMATULLAYEV,  
Yakkabog' tumani

## "Isming kim?" desa variant so'raydi

"Talabalar o'qishni bitirayotganda ham DTM testidan o'tishi kerak", – deydi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri Abduqodir Toshqulov – 11 yil maktabda o'qib, ammo bilim yetarli bo'lmagach, qoshimcha tayyorlanib, "test ishla", "test yodla"dan keyin omdimiz kulib, oliy o'quv yurtiga kiramiz.

U yerda talabalarining bilimni testlar orqali aniqlagandan ko'ra kasbga yo'naltiruvchi tadbirlar tashkil qilinsa yaxshimasmi? Testlar bilimni oshirmaydi, bu ham ba'zilar uchun lotoreyadek gap. Aynan shuning uchun ham jamiyatimiz bilimli mutaxassislarga emas, "omadi kelgan"larga to'lib bormoqda.

Yoshlar kelajagimiz deyishadi-yu, biroq ularning sanoqlilarigagina e'tibor berishadi. Jamiyatimizda yoshlar o'z ko'p. Ularni yuz foiz desak, faqat yarmigagina e'tibor kuchli. Muvaffaqiyatga erishgan yoshlar o'z yo'lidan ketib, yaxshi yashaydi. Qolganlari esa tirikchilik yo'lini o'zi topadi. Odamlar "nima qilsam, o'zimni qanday ko'rsatsam, o'tib ketsam bo'ldi" qabilida hafsalasiz yondashishadi ishlariga. Buni insoniylikdan,

diniy va dunyoviy bilimlardan to'liq xabardor emasligi yoki bilimsizlikka yo'yishdan oldin, sababini o'rganish kerak. Har bir mutaxassis kasbga sidqidildan jon kuydirsa, omadsizlik va omadsizlar soni kamayarmidi?! Aql o'rgatish oson bo'lib qolgan bu zamonda bitta odamning jon kuydirishi natija bermaydi. Insonlar zamonni ayblashadi, lekin shu zamonni yaratuvchi insonning o'zi-ku.

Kunda yangi qaror chiqarmay, bir qarorning ijrosini oxirigacha ta'minlash kerak. Jamiyatimizga u shoxdan bu shoxga sakrab uchadigan qushlar emas, o'z makonida in qurib, uni aslo tark etmaydigan, uning ravnaqi uchun kurashadigan, o'ziga ishongan yoshlar kerak. Isming kim desa "variantlar bormi" deyidigan robotlar emas...

Shohsanambonu SAIDOVA,  
O'zDJTU talabasi

**Xaydarov Furkat Ganiyevichning 14.00.02 — Morfologiya; 14.00.16 — Normal va patologik fiziologiya ixtisosligi bo'yicha "Tipologik xususiyatlarga bog'liq ravishda eksperimental bosh miya jarohatlarining morfo-fiziologik jihatlarini va korreksiyalash yo'llari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc/PhD.04/30.12.2019. Tib.93.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 23-sentabr kuni soat 12:30 dagi onlayn(masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Alisher Navoiy shohko'chasi, 1-uy.  
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

**Djurayeva Laylo Shuxratovnaning 17.00.02 — Musiqa san'ati ixtisosligi bo'yicha "Alisher Navoiy va musiqa san'ati" mavzusidagi (san'atshunoslik fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019. San.54.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 16-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Olmazor ko'chasi, 1-uy.  
Tel/faks: (71) 239-46-53, 244-53-20; e-mail: info@konservatoriya.uz

**Mirtalipova Iroda Mirtaxirovnaning 17.00.02 — Musiqa san'ati ixtisosligi bo'yicha "Mikroxromatika. Nazariya, tarix va amaliyot" mavzusidagi (san'atshunoslik fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019. San.54.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 16-sentabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Olmazor ko'chasi, 1-uy.  
Tel/faks: (71) 239-46-53, 244-53-20; e-mail: info@konservatoriya.uz

**Ibragimov Behzod Baxtiyorovichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Malaka oshirish tizimida sport kurashlari bo'yicha trenerlarning kasbiy mahoratini takomillatirish metodikasi" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 18-sentabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.  
O'zDJTSU binosi.  
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

**Mamaziyatov Doniyorbek Baxtiyorovichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini tayyorlash tizimida olimpiya bilimlarining ilmiy-uslubiy asoslari" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 18-sentabr kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.  
O'zDJTSU binosi.  
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

**Boltayev Akmal Akramovichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Yosh voleybolchilarda maxsus ish qobiliyatini rivojlantirish va uni o'yin davomida saqlash imkoniyati" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 17-sentabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.  
O'zDJTSU binosi.  
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

**Choriyev Ilhom Ruzibayovichning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sharoitida malaka oshirish jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021. Ped.82.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 24-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy.  
Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz. Chirchiq davlat pedagogika instituti.

**Shermatova Umida Sapayevnaning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "O'quvchilarning vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda tarixiy, adabiy-badiiy manbalardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari (Cho'lpon ijodi misolida)" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021. Ped.82.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 24-sentabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy.  
Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz.  
Chirchiq davlat pedagogika instituti.

**Amanturdiyev Ikrom G'ulomovichning 03.00.09 — Umumiy genetik ixtisosligi bo'yicha "Ekologo-geografik uzoq g'o'za duragaylarida biotik omillarga tolerantlikning genetik jihatlarini va ayrim biokimyoviy ko'rsatkichlar bilan bog'liqlik" mavzusidagi (biologiya fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019. V.53.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 22-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 111226, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori-yuz p/b, Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti majlislar zali.  
Tel/faks: (71) 264-23-90, 264-23-90; e-mail: igebr@academy.uz.

**Ko'chimov Ulug'bek Qo'chqarovichning 10.00.06 — Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha "Fantastik asarlarda badiiy psixologizm konsepsiyasi (Rey Bredberi va Hojiakbar Shayxov ijodi misolida)" mavzusida (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Fil/Ped.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 23-sentabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-"a" uy.  
Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu\_info@mail.ru

**Xalmuratova Baxitgul Uxaxbergenovnaning 06.01.02 — Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik ixtisosligi bo'yicha "Suv tanqisligi sharoitida asosiy ekinlarning maqbul sug'orish tizimini ishlab chiqish (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019. Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 28-sentabr kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Salar shaharchasi, Universitet ko'chasi, 1-uy. Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti.  
Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru

**Axmedov Alibek Bahodirovichning 14.00.21 — Stomatologiya ixtisosligi bo'yicha "Bolalarda tish qattiq to'qimasi nokaries kasalliklarini kompleks davolash samaradorligini klinik-biokimyoviy baholash" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat stomatologiya instituti huzuridagi DSc.04/30.12.2019. Tib.59.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 17-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 103-uy.  
Tel/faks: (71) 230-20-65, 230-47-99; e-mail: tsdi2016@mail.ru

**Omonov Behruzjon Shuhrat o'g'lining 02.00.14 — Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi (texnika fanlari) bo'yicha "Atsetilendan vinilasetatning katalitik sintezi va texnologiyasi" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.16/30.12.2019. T.87.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 17-sentabr kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 111116, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, "Sho'ro bozor" mahallasi.  
Tel/faks: (95) 144-67-83; e-mail: gup\_tniixt@mail.ru

**Dosanova Gulzar Maulenbergovnaning 02.00.13 — Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Mahalliy xomashyolar asosida ko'pchitilgan vermikulitni gidrofoblash va yengil issiqlik saqlovchi materiallar texnologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qoraqalpog' davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019. T.20.03 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 24-sentabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch. Abdirov ko'chasi, 1-uy, Qoraqalpog' davlat universiteti.  
Tel/faks: (61) 223-60-47, 223-60-78; e-mail: karsu\_info@edu.uz

**Oblomuratova Xabiba Naimovnaning 09.00.04 — Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha "Globallashuv sharoitida missionerlikning oldini olish usullari va vositalari (ijtimoiy-falsafiy tahlil)" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 23-sentabr kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.  
Tel/faks: (71) 246-02-24; e-mail: rector@nuu.uz

Izoh: O'tkazilayotgan barcha himoyalar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markazning <http://himoya.bimm.uz> platformasi va ZOOM dasturi orqali onlayn (masofaviy) tarzda amalga oshiriladi.

Toshkent moliya va iqtisodiyot kolleji tomonidan Davlat attestatsiya komissiyasining 2019-yil 20-iyundagi qaroriga binoan Qobilov Sunatilla Ravshan o'g'liga berilgan K № 57676423(ro'yxat raqami 477) raqamli diplom va uning ilovasi yo'qolgani sababli

**BEKOR QILINADI.**

Bugun Nargizaning tug'ilgan kuni. O'n to'rtga kirdi. Dadasi zamonaviy telefon sovg'a qilishini kutardi. Shuni o'ylab kiyindi va maktabiga jo'ndi. Jonajon maktabida uni sinfdoshlari turfa xil gullar va bir dasta kitoblar bilan qutladi.



## Kitobni sev, unga do'st tutin!



Nargiza sovg'alar orasida Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni", Oybekning "Navoiy" romani va Tohir Malikning bir qancha kitoblari borligini ko'rdi. Sinf rahbari Feruza opa butun sinf nomidan uni tabriklar ekan, kitob insonning do'sti ekanligini ta'kidladi. Kun kelib, albatta, Nargiza ushbu kitoblarni eng katta boyligim deyishiga ishonishini aytdi.

Feruza opa ajdodlarimizning kitob va kitobxonlikka mehri haqida gapirarkan, "Mashrabxonlik", "Navoiyxonlik" an'analar va bahribayt musobaqalari haqidayam qiziqarli ma'lumotlarni aytib o'tdi.

Nargiza maktabdan qandaydir tushkun holda qaytdi. Oshxonada uni dadasi va oyisi kutib o'tirardi. Dadasi usti zar qog'oz bilan o'ralgan qalin to'rtburchak sovg'ani Nargizaga berdi va tug'ilgan kuni bilan tabrikladi. Nargiza bu telefon emasligini payqagach, kayfiyati tushib ketdi va so'radi:

— Nima bu?

— Kitob. Oying tanladi, — dedi dadasi va qizining yuzidagi g'amginlikni ko'rib hayron qoldi: — Nima, yoqmadimi, qizim?

— Yoqduku-ya... Lekin, dadajon, men sizga telefonim bo'lishini xohlayman, degandim-ku!

Oyisi gapirdi:

— Qizim...

— Nima qizim?! Sinfimizdagi hamma qizlarning telefoni bor. Mening ulardan nimam kam? Bu kitobingizni nima qilaman?

— Xo'p, qizim, xo'p. Xafa bo'lma, meni kechir. Ertagayoq dadang bozorga borib aytgan telefoningni olib keladi.

— Rostanmi?! — sevindi Nargiza.

Shu bilan kechki ovqatni yeyishdi va Nargiza uxlashga yotdi. Lekin uyqu kelmasdi. She'r aytib yotdi, bo'lmadi. Ikki yuzgacha sanadi, bo'lmadi. Shunda tokchada turgan boyagi kitobni oldi va ustidagi qog'ozini yechdi. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" kitobi ekan. Ichidan ikki-uch hikoyani o'qib ko'rdi. Hikoyalar onalar haqida ekan. Yana biroz o'qib, uxlab qoldi. Tushiga oyisi kirdi. Nargiza nuqul oyisiga "Telefon kerak, telefon!", deya baqirarmish, yig'larmish. Oyisi: "Yig'lama, jon qizim, dadang olib keladi", deb uni bag'riga bosarmish. Birdan uyg'onib ketdi. Tong otibdi. Yonida yotgan kitobni ko'rib, kecha oyisiga baqirganidan, uning dilini og'ritganidan rosa uyaldi. Kiyinib oshxonaga kirdi. Oyisi nonushta tayyorlayotgan ekan. Salom berdi va shunday dedi:

— Oyijon, kecha sizga baqirib ko'nglingizni og'ritganim uchun kechiring. Menga telefon kerak emas. Baxtingiz siz va dadam sog' bo'lsangiz bas. Sovg'a qilgan kitobingiz juda yoqdi. Eng yaxshi sovg'a kitob ekan!

Oyisi buni eshitib juda sevindi.

Barchinoy RO'ZMETOVA,  
Urganch tumanidagi  
47-IDUM o'quvchisi

# Qo'ng'iroq chalinguncha



Rivoyat qilishlaricha, qadim zamonda go'zal vodiy, tog'-u toshlar, mehr-u oqibat quyuc davrda bir er-xotin yashagan ekan. Ular tirikchiligini halol mehnat bilan o'tkazisharkan. Vaqti-soati kelib, ayol boshqorog'i bo'libdi. Er-xotin bozorga borib, ro'zg'orni to'ldirmoqchi bo'lishibdi. Rastalarda terilib turgan shirinliklar-u meva-chevalarni ko'rib, u-bu xarid qilishibdi.

## Bir tomchi anor suvi

Ayolning ko'zi qip-qizil anorga tushibdi-da, shu anorni yegisi kelibdi. Aksiga olib pullari yetmay qolibdi. Shunda u bitta anorni olib ko'rgan kishi bo'lib, to'g'nag'ichini sanchib, anor suvidan ozgina shimibdi.

Yillar ortidan yillar o'tibdi. Oilada paydo bo'lgan o'g'il 12 yashar chamalab qolibdi. Suv tanqis zamonlarda oqibatli qishloq o'rtasidan meshlarda suv ortib, karvon o'tarkan. Har o'tganda bir bola meshlarga bigiz tiqib, uzoqdan uzoqqa olib borilayotgan suvlarni oqizib yuborar ekan. Karvon egalari oxiri bir amallab bigiz urgan bolani ushlab, qozi oldiga olib boribdi. Ota-onasini, mahalla-ko'yni chaqiribdi.

Hamma hayron — o'sha halol, pokiza, sofdil, mehnat-la kun ko'radigan, birovning haqqiga xiyonat qilmaydigan oiladan shunday ziyon yetkazuvchi bola qanday paydo bo'ldi? Xullas, qozi tergovidan so'ng ayol kelinchak payti, bozorda to'g'nag'ich bilan anorni teshib, suvidan shimiganini tan olibdi. Aybdorlar jazosini olibdi.

Xalq tushunibdiki, bir vaqtlar ignadek teshikdan tushgan bir-ikki tomchi sharbat sharillagan oqim suvga aylanishi mumkin ekan.

Sabohat TO'XTABOYEVA  
tayyorladi.

## "Tun kunduzni tunadi..."

\*\*\*

Bir-birini turtkilab,  
O'tayotir odamlar.  
Minglab yo'ldan bir yo'lga  
Ketayotir odamlar.

Baqirishib, shovqinlab,  
Kulishib hamda yig'lab,  
Maqtab-maqtab molini,  
Sotayotir odamlar.

Dunyo deb, xo'p talashib,  
Shayton bilan do'stlashib,  
O'z qavmigga og'ular  
Tutayotir odamlar.

Alg'ov-dalg'ov dunyoni,  
Bu azaliy ro'yoni,  
Nesidan ayt, nelarni  
Kutayotir odamlar?

Aldaganga esh bo'lib,  
O'zlaricha pesh bo'lib.  
Rostgo'yiga toshlarin  
O'tayotir odamlar.

Shular mening yo'ldoshim,  
Qayga urayin boshim?  
Chap ko'ksingiz yomonlar  
Botayotir odamlar.

Kelayotir odamlar,  
Ketayotir odamlar.  
Bir-birining boshiga  
Yetayotir odamlar.

\*\*\*

"Nafasning chiqarma!", dedi  
Nafasimni ichimga yutdim.  
Og'ir bo'ldi, ko'nikdim, ammo  
Tirikmanmi, yo'qmi, unutdim.

G'irchillaydi tebranib beshik,  
"Nafas" chiqar og'ochlardan ham.  
Menday bo'lib qolmayin desang,  
Hech bo'lmasa, yig'lab tur, bolam.

\*\*\*

Izlab ko'rsang topasan,  
Toshda ham bir hikmat bor.  
Unga tegib yorilgan,  
Boshda ham bir hikmat bor.

O'ng-u so'ling hikmatdir,  
Yurgan yo'ling hikmatdir.  
O'ylab ko'rsang, guruch-u  
Moshda ham bir hikmat bor.

Bilsang, ko'na dunyo bu,  
Oqmay qolmas oqqan suv.  
Kipringingda osilgan  
Yoshda ham bir hikmat bor.

O'tdi Temur, Iskandar,  
Qancha darvesh, qalandar.  
Yog'och otda ketyotgan  
Loshda ham bir hikmat bor.

Mening joyim mayxona,  
May quysa bas, jonona.  
Qara, suzuk ko'z bilan,  
Qoshda ham bir hikmat bor.

\*\*\*

Keldingmi bu dunyoga,  
Yo'ling ham tayin ekan.  
Qolgan bari g'avg'osi,  
Shunchaki o'yin ekan.

Kami qachon to'ladi?

Xom sut emgan bandalar,  
Talashlar joy talab.  
Qilmishidan ularning  
Shayton qolar shaytonlab.

Bilmam nima bo'ladi?

Boshi qayda dunyoning,  
Qayda uning oyog'i?  
Terga botgan samoning,  
Oqib ketdi bo'yog'i.

Endi quyosh kuladi.

Yer-ku bir kun to'yadi,  
Ko'ngli to'lmas yetimning.  
Hushdan ketdi bir yulduz,  
Sanab kelim-ketimni.

Yulduzlar ham so'nadi.

Raqsga tushar qalandar,  
U yo'lini biladi.

To'rvasida qotgan non  
Bormi, shunday qiladi.  
Tun kunduzni tunadi.

Oy teskari burilib,  
Ko'k yuzini bezadi.  
Tun tushida zindonning  
Suhratini chizadi.

Yana quyosh kuladi,  
Yana quyosh kuladi.  
Qolganini bilmayman,  
Faqat O'zi biladi.

\*\*\*

Yiqildingmi, yig'lama,  
Qani, qo'ling ber, bolam.  
Yiqilganni hamisha,  
Ko'targaydir yer, bolam.

Albong-dalbong qilib san,  
Qaddingni tik tutgaysan.  
Bobolaring g'olibdir,  
Bir kun sen ham yutgaysan.

Lek bu yoqda bir millat,  
Nomi ulug', dami yo'q,  
Mudrayotir bemalol,  
Kami ko'p-u, g'ami yo'q.

Chet elniki desalar,  
Xo'rozqandni talashib,  
Kimo'zarga maqtanib,  
Yotibdilar yalashib.

Shirin ta'mga aldanib,  
Necha yilki ovvora.  
Tetapoya qilishni  
Eplolmayin, bechora.

Yiqildingmi, yig'lama,  
Ko'zyoshingni art, bolam.  
Bobolaring mard o'tgan,  
Sen ham bo'lg'in mard, bolam.

Dadil qadam mardlarga,  
Mushtoq ona yurt, bolam!

Qahramon ESHMURODOV,  
Kattaqo'rg'on tumanidagi  
74-maktab o'qituvchisi

# Kitobsiz taraqqiyot bo'lmaydi

Inson o'zining fikrlash qobiliyati, ma'naviy dunyosi bilan tirik. Odamni boshqa mavjudotlardan ajratib turuvchi omillardan biri ham uning ma'naviyati hisoblanadi. "Kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilm-u donishning asosidir. Hayotni o'rgatuvchi murabbiydir". Barkamol avlodni voyaga yetkazishda kitobning tarbiyaviy ahamiyati beqiyos. Binobarin, aynan mutolaa insonga bilim va axborot beradi, uning ma'naviy olamini boyitadi.



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma'naviyatga erishib bo'lmaydi. Kitob o'qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo'q", deya ta'kidlaydilar. Shuning uchun ham yoshlarni har tomonlama fikrlaydigan, ma'nan yetuk, har qanday axborotlarni aql bilan tahlil eta oladigan, barkamol inson qilib tarbiyalash biz, kutubxonachilarning asosiy vazifamizdir.

"NOP World" xalqaro reyting agentligi ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda odamlar haftasiga 16.6 soat vaqtini televizor ko'rishga sarflasa, 8.9 soatni kompyuter qarshisida o'tkazadi, 6.5 soatni esa mutolaaga ajratadi. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra haftasiga eng ko'p kitob o'qiydigan mamlakatlar ro'yxatida

Hindiston — 10.7, Tailand — 9.4, Xitoy — 8, Filipin — 7.6, Chexiya — 7.4, Rossiya — 7.1, Shvetsiya — 6.9, Fransiya — 6.9 va Vengriya — 6.8 soat bilan yuqori o'rinlarni egalladi.

Shayxontohur tuman axborot-kutubxona markazi umumiy fondi 47266 kitobdan iborat bo'lib, asosiy kitoblar zamonaviy bilim-ko'nikmalariga asoslangan sinfdan tashqari o'qish uchun mo'ljallangan. Shu kungacha 115 nomdagi adabiyotlarning elektron nusxasi yaratilgan. 5 ta telegram kanali, feysbuk va instagramda muntazam yangiliklar kiritiladi. Telegram kanallari: <http://t.me/shayxantaxurakm>; [http://t.me/shayxontohur\\_klub](http://t.me/shayxontohur_klub); <http://t.me/shayxontohurakmkitobxon>; [https://t.me/sh\\_audiobooks](https://t.me/sh_audiobooks); [https://t.me/baby\\_kutubxon](https://t.me/baby_kutubxon).

Hozirgi kunda 4800 kitobxonga onlayn va offlayn tarzda xizmat ko'rsatiladi. Shayxontohur kutubxonasi Abdulla Qodiriy uy-muzeyi va tuman hokimiyati bilan hamkorlikda bir qancha ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazib kelmoqda: "Har bir xonadonda — bizning kitobxon", "Sen ham o'qigin", "Ertaklar olamiga sayohat", "Men yoqtirgan she'r", "Eng sevimli qahramonim", "Sizga tilaklarim bir jahon bo'lsin" shular jumlasidandir. Shuningdek, tumanda joylashgan maktab, bog'cha va mahallalar bilan shartnomalar tuzib, "Faol kitobxon" deb nomlangan kitobxonlar klubi yaratilgan.

Umar SHOMIRZAYEV,  
Shayxontohur tumani  
Axborot-kutubxona markazi direktori

**Shadimetova Gulchehra Mamurovnaning 09.00.02 — Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi (Estetika) ixtisosligi bo'yicha "Milliy bayramlarning estetik xususiyatlari" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 23-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.

Tel/faks: (71) 246-02-24, 246-53-21; e-mail: rector@nuu.uz

**Usmonov Saidikromxo'ja Saydaliyevichning 09.00.06 — G'oyalar tarixi va metodologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Milliy mafkuraning jamiyatda ijtimoiy-madaniy barqarorlikni ta'minlashga ta'siri" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.01.14 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 24-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.

O'zMUning Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 5-qavat, 511-xona.

Tel/faks: (71) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

**Saidakbarova Saodat Parxodjanovnaning 10.00.06 — Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha "Ingliz va o'zbek tillarida gastronomik frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 23-sentabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 16-uy.

Tel/faks: (71) 233-45-21, 233-52-24; e-mail: sharq\_ilmij@mail.ru

**Madaliyev Yarmuxammad Xudaybergenovichning 10.00.06 — Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha "Turkiy xalqlar og'zaki ijodida latifa janri: tipologiyasi, motivlari, tasnifi (o'zbek va qozoq latifalari misolida)" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 23-sentabr kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 16-uy.

Tel/faks: (71) 233-45-21, 233-52-24; e-mail: sharq\_ilmij@mail.ru

**Madaliyeva Oysara Rustamovnaning 10.00.10 — Matshunoslik va adabiy manbashunoslik ixtisosligi bo'yicha "Navoiy devonlari qo'lyozmalarining tarkibiy-qiyosiy tadqiqi (O'zRFA Sharqshunoslik instituti fondi qo'lyozmalari asosida)" mavzusidagi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 23-sentabr kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 16-uy.

Tel/faks: (71) 233-45-21, 233-52-24; e-mail: sharq\_ilmij@mail.ru

Izoh: O'tkazilayotgan barcha himoyalar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markazning <http://himoya.bimm.uz> platformasi va ZOOM dasturi orqali onlayn (masofaviy) tarzda amalga oshiriladi.



## KAMOLIDDIN BENZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI KAFEDRALARI BO'YICHA QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI:

### I. "San'at tarixi va nazariyasi" kafedrası

1. Kafedra mudiri.

### II. "Libos dizayni" kafedrası

2. Kafedra mudiri.

### III. "Amaliy grafika" kafedrası

3. Kafedra mudiri.

### Tanlovda ishtirok etish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

institut rektori nomiga ariza;  
xodimlar shaxsiy varaqasi;  
oliy ma'lumoti, ilmiy darajasi, ilmiy unvonini haqida diplom va attestatlarining nusxasi;  
tasdiqlangan ilmiy va o'quv-metodik ishlari ro'yxati;  
ijodiy ishlari ro'yxati, kataloglari.

Hujjatlar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddat ichida institut Kengashi kotibi tomonidan qabul qilinadi.

Manzil: Toshkent shahri, Mirobod tumani,

Mironshoh ko'chasi, 123-uy.

Murojaat uchun telefonlar: (71) 255-18-33, 255-98-39.

16 Qadrdon gazetam "Ma'rifat"ga, yana o'sha baxtli ijod maydoniga qaytish imkoni berilganda edi, hech ikkilanmay qaytgan bo'lardim.

# O'sha qaynoq ijod va mehr maskanini juda sog'inaman

**Yaratganga shukrki, meni doim yaxshi makonlarga yo'lladi. Yaxshi insonlarga yuzlashtirdi. Ota-onamning farzandi bo'lganim baxtim bo'lsa, "Ma'rifat"dek dargohga qadam qo'yganim chinakam omadim bo'lgan. O'quvchi paytim bu gazetaning har bir sahifasini hijjalab o'qirdim, tuman gazetasida bosilgan she'rlarim, hikoyalarning konvertga solib jo'natmoqchi bo'lardim-u, negadir, biror marta jo'natmaganman.**

To'g'risini aytсам, bu dargohga tasodifan kelib qolganman. 2006-yili ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan qarindoshimizdan jurnalistika sohasida ish bo'lsa ishlamoqchiligim, meni kontraktida o'qitish, Toshkentdan uy olish, singillarim, ukalarimning tashvishi ota-onamni charchatib qo'yayotganligini aytib, yordam so'radim. Biroz muddatdan so'ng, 2 joyda – televideniye yoki gazetada o'z omadimni sinab ko'rish imkoniyati borligini aytgan qarindoshimga soddalik qilibmi yoki taqdir shu so'zni aytishimni istadimi, "televideniya ishlovlamayman, u yerda ishlaydiganlarga o'xshab chiroylimasman-da", dedim. Bu gapni eshitib miyig'ida kulgan u kishi: "Bo'lmasa, mana shu manzilga borasan. U yerda senga o'xshagan har bir yoshning o'z yo'lini topishiga ham maktab, ham imkoniyat bor. Yodingda bo'lsin, sen borayotgan tahririyat

yolg'onni, yomonlikni, ayyorlikni yoqtirmaydi. Eplab ketolsang, omadingni bersin", dedi.

Qo'limga yozilgan manzilni so'rab, surishtirib, tushlikka yaqin topdim. 4-qavatga ko'tarildim. Uzun, oppoq koridoridan yurib borib, "Bosh muharrir o'rinbosari Abdusamad Rahimov" deb yozilgan xonani taqillatdim. "Kiring" iznini olgach, xonaga kirdim. U kishi muddaomni eshitib, bosh muharrir xonasiga boshladi. Abdusamad akaga ergashib borarkanman, koridorda qishloqdoshim Akmal akani ko'rib qoldim. U kishi qo'lidagi qog'ozga qaragancha bir xonaga kirib ketdi.

Bosh muharrir — Halim Saidovning xonasiga kirarkanman negadir oyoqlarim zir-zir qaltiray boshladi. Abdusamad aka amaliyotga kelganimni, kontraktida o'qishimni, imkoni bo'lsa ishlab, "o'z aravamni tor-

tish" niyatida ekanligimni (bu gaplarni biroz avval Abdusamad akaning savollariga javob berayotganda o'zim aytgandim) aytib meni tanishtirdi. Halim akaning ilk bergan savoli "Ma'rifat"dan kimlarni tanisysiz?" bo'ldi. Men ham shoshibmi, g'o'rlik qilibmi "Akmal akani" dedim. U kishi "Akmal shu gazetada ishlaydi, maqola yozmaydi-ku", dedi va meni boshqa qiytnashni istamadimi yoki vaqti

"Ma'rifat"dagi ilk ish kunim ana shunday boshlangan. Hulkar opa meni "pishirish" uchun ancha-muncha ter to'kkan, goh qattiqqo'llik bilan, goh yumshoqlik bilan (kayfiyati yaxshi bo'lganda juda mehribon bo'lib qolardi) meni tarbiyaladi. Ba'zan yoshlik qilib gap qaytarib, ko'nglini og'ritganimdan ko'p afsuslanaman. Bu sohada mening ilk ustozim Hulkar To'ymanovadan maqola yozish, tahrir qilish saboqlari bilan birga ham ro'zg'or, ham ishni birdek eplash tajribasini o'rgatgani uchun umr bo'yi minnatdorman.

Shuningdek, bu dargohda menga eng ko'p yordam bergan Halim Saidov, Abdusamad Rahimov, har bir yozgan maqolamning ruhini uyg'otib beradigan Husan Nishonov, tanbehni teskari berib tarbiyalagan marhum ustozimiz Mahmud Sa'diy, har bir daqiqasi o'lchovli bo'lsa-da, meni eshitib, opalik maslahatini bergan Nasiba Erxonova, onalarcha mehr-u maslahatlarini hech kimdan ayamaydigan Dilobar Ergasheva va duogo'y onamiz Qutbi ona kabi insonlarning(imkoni bo'lsa birga ishlagan har bir kishining ismini yozgan bo'lardim) yordami va saboqlari uchun ham chin dildan tashakkur deymen.

Xullas, "Ma'rifat"da men tanigan, birga ishlagan opala-



rim, tengdoshlarim bilan bir safda ijod qilganimdan, har biridan bir chimdini bo'lsa-da o'rmak olganimdan baxtiyorman.

Meni boshi berk ko'chadan yorug' manzillar tomon yetaklagan qadrdon gazetam "Ma'rifat"ga, yana o'sha baxtli ijod maydoniga qaytish imkoni berilganda edi, hech ikkilanmay qaytgan bo'lardim. Va eng ko'p anglaganim, diqqatimni oilaviy tashvishlarimga emas, zabardast ustozlardan mahorat darslari olishga sarflagan bo'lardim.

Meni "Ma'rifat"dek ziyo ummonidan bir tomchi ma'rifat, eng yaxshi xotiralar, mehribon opalar, qadrdon tengdoshlar bilan siylaganing uchun rahmat senga, hayot!!!

Mahbuba KARIMOVA



ziqligidanmi boshqa savol bermadi. Sinov muddati bilan ishga olinishimni, ustozlar sinovidan o'tsam ishni davom ettirishimni aytib, Hulkar To'ymanovning xonasiga boshlab bordi. Xona to'rida nimalarnidir o'qib, tahrir qilayotgan ko'zoynakli bu ayol bizni ochiq chehra bilan qarshiladi.

— Mana sizga yana bir "g'o'ra" shogird, — dedi Halim Saidov hazilomuz. — O'zingiz parvarishlab, pishirasiz.

## Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

qoshida tashkil etilgan Kasbiy qayta tayyorlash kursiga oliy ma'lumotga ega bo'lgan pedagogik va nopedagogik mutaxassislarni (maktabgacha ta'lim, jismoniy tarbiya, CHYT) fanlaridan tashqari barcha fan yo'nalishlari bo'yicha o'qishga taklif etamiz.

Quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:  
Diplom va ilova asli, pasport nusxasi, mehnat daftarchasidan nusxa, ish joyidan ma'lumotnoma, yo'llanma, 3x4 rasm 6 dona.

Ma'lumot uchun telefonlar: (90) 931-60-73, (97) 700-28-73

# Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,  
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,  
O'zbekiston Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
Indeks: 149, 150, V-4838. Tiraji 7762.  
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,  
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:  
qabulxona — (71) 233-50-55;  
kotibiyat — (71) 233-99-15;  
reklama va marketing bo'limi —  
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.



"Ma'rifat"dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:  
100083, Toshkent shahri,  
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.  
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.  
Navbatchi muharrir: Humoyun Quvondiqov.  
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
Korxonada manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.